

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

Qo‘lyozma

huquqida

UDK: 809.15-3

BBK: 81.2-4

N-16

**NADJAPOVA NIGINA ABDURASULOVNA
FORS TILIDA EVFEMIZM VA TABU SO‘ZLARINING
FUNKSIONAL VA SEMANTIK TAHLILI**

5A120102 - Lingvistika (fors tili)

**MAGISTR AKADEMIK DARAJASINI OLISH UCHUN
YOZILGAN DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. Quronbekov A.

Ilmiy ishdan ko‘zlangan maqsad hozirgi zamon fors adabiy tilidagi muomalada bo‘lgan fe‘liy va ismiy evfemizmlarni aniqlash, ularning yasalishi va semantik tahlilini tadqiq etishdan iborat, shuningdek qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda fors tilidagi evfemizmlarning turlarini aniqlash va ularning ifodalanish usullarini yoritishdan iborat.

Toshkent – 2013

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB.	EVFEMIZMLARNI O‘RGANISHNING NAZARIY ASPEKTLARI.....	4
		8
1.1.	Tabu va evfemizm.....	8
1.2.	Evfemizmlar klassifikatsiyasi borasidagi turli yondashuvlar.....	11
1.3.	Evfemalarning yondosh hodisalarga munosabati.....	18
II BOB.	FE’LIY VA ISMIY EVFEMIZMLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI	21
2.1.	Fe’liy evfemizmlarning tarkibiy turlari.....	21
2.1.1	Sodda fe’liy evfemizmlar.....	21
2.1.2.	Prefiksli fe’liy evfemizmlar.....	22
2.1.3.	Qo‘shma fe’liy evfemizmlar.....	22
2.1.4.	Frazeologik fe’liy evfemizmlar.....	23
2.1.5.	So‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi va metaforizatsiyasi	24
2.1.6.	Sodda fe’lni idiomatik fe’liy birikmalarga almashtirish orqali evfemizmlarning ifodalanishi.....	25
2.1.7.	Erkin fe’liy birikmalar bilan ifodalangan evfemizmlar.....	28
	Fe’llar antonimini inkor shaklida berish orqali sinonimini hosil qilish.....	29
2.1.8.		29
2.2.	Ismiy evfemizmlar.....	30
2.2.1.	Ot so‘z turkumidagi so‘zlar bilan ifodalangan evfemizmlar.....	30
2.2.2.	Kishilik olmoshlari bilan ifodalangan evfemizmlar.....	33
2.3.	Disfemizm va ular ifodalovchi tushunchalar.....	35
2.3.1.	Kinoya anglatuvchi disfemizmlar.....	38
2.3.2.	Qarg‘ish anglatuvchi disfemizmlar.....	43

III BOB.	FORS TILIDA EVFEMIK VA DISFEMIK BIRLIKLARNING	
	FUNKSIONAL USLUBLARDA QO‘LLANILISHI	47
3.1.	Fe’liy evfemizmlarning funksional uslublarda qo‘llanishi.....	47
3.1.1.	Og‘zaki nutq uslubida evfemizmlarning qo‘llanishi.....	50
3.1.2.	Me’yoriy nutq uslubida evfemizmlarning qo‘llanishi.....	51
3.1.3.	Rasmiy nutq uslubida evfemizmlarning qo‘llanishi.....	53
3.1.4	Badiiy nutq uslubida evfemizmlarning qo‘llanishi.....	54
XULOSA	58
FOYDALANILGAN MANBALAR RO‘YXATI		60

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Dunyo tilshunosligining hozirgi holati, jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, boshqa fanlarga bo'lgani kabi, o'zbek va fors tilshunosligi oldiga ham yangi vazifalar qo'yimoqda. Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida alohida ta'kidlaganidek, "ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar chop etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz"¹.

Biz bilamizki, insonning nutq faoliyati asosan axloqiy normalarga rioya qiladi. Axloqiy va madaniy jihatdan qo'llanilishi ta'qiqlangan yoki noqulay deb topilgan so'zlar o'rniga boshqa so'z va iboralarning qo'llanishi **evfemizmlar** (grekcha *euphemeo* – "yaxshi, yumshoq gapiraman" ma'nosida) deb ataladi.

Evfemizmlar narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi sifatida tilning tasviriy imkoniyatlari boyishi uchun xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy-stilistik farqlanishlar (differensiatsiya) evfemizm turlari va ularning ifodalanish usullarida aks etadi.

Fe'liy va ismiy evfemizmlarni o'rganish fe'lning struktur va ma'no jihatidan xilma-xilligi, leksik bog'lanish xususiyati, ijtimoiy-stilistik differensiatsiya (lot. *differentia* – farqlanish; til birliklarining shakl, mazmun va boshqa jihatlari o'zaro ajralishi, qatlamlanishi)ning mavjudligi bilan bog'liq. Bularning barchasi, o'z navbatida, evfemizmlarning turli ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Fors tilida evfemizmlarni tadqiq etish, ularning keng tarqalgan turlarini tekshirish, evfemizmlarning ifodalanish yo'llari haqida asosli xulosalar chiqarish, ularning

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007. - B. 87.

nutqning ijtimoiy-stilistik tabaqalanishidagi ahamiyatini ko'rsatish imkonini beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Eron tilshunosligida evfemizmlar maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lmagan. Ilmiy adabiyotlarda mazkur muammoning ba'zi jihatlari haqida qisman to'xtalib o'tilgan. Masalan, L.S.Peysikovning "Лексикология современного персидского языка" (M., 1975) kitobida evfemizmlarning ayrim tiplari haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan, D.A.Azimdjanovanning "Синонимия глагольной лексики современного персидского языка" (T., 1997) nomzodlik dissertatsiyasida esa evfemizmlar fe'liy sinonimik qatorning boyish manbalaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot ob'ekti. Tadqiqot ob'ekti hozirgi zamon fors tilshunosligidagi kam o'rganilgan muammolardan biri – evfemizmlar hodisasi, uning tarkibi, funksional xususiyatlari va semantik ifodalanishdir.

Tadqiqotning maqsadi. Ilmiy ishdan ko'zlangan maqsad hozirgi zamon fors adabiy tilidagi muomalada bo'lgan fe'liy va ismiy evfemizmlarni aniqlash, ularning yasalishi va semantik tahlilini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot manbalari. Tadqiqotga manba sifatida hozirgi fors tilidagi adabiy asarlar: Nozi Safaviyning "دالان بهشت" romani, Murodi Kermoniyning "قصه های", Mahin Tavallo'liyning "ویولون شکسته", Sodiq Hidoyatning "سه قطره خون", Jalol ole Ahmadning "دید و بازدید" hikoyalar to'plami hamda boshqa Eron yozuvchilarining hikoyalari olindi.

Tadqiqot vazifalari qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda fors tilidagi evfemizmlarning turlarini aniqlash va ularning ifodalanish usullarini yoritishdan iborat.

Fors tilshunosligining muhim masalalaridan biri evfemizmlar mavzusidir. Mazkur mavzu bo'yicha Rossiyada ham, O'zbekistonda ham eronshunoslar tomonidan maxsus tadqiqot amalga oshirilmagan. Faqat ayrim ilmiy asarlardagina ozmi-ko'pmi bu haqda qisqacha ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, darslik va

o‘quv qo‘llanmalarida, ba’zi maqolalarda evfemizmlar va ularning nutqdagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Odamning nutq faoliyati axloqiy normalarga rioya qiladi. Axloqiy va madaniy jihatdan qo‘llanishi noqulay deb topilgan so‘zlar o‘rniga boshqa so‘z va iboralarning qo‘llanilishi evfemizmlar deb ataladi.

Tushunchalarning evfemizatsiyalashuvi masalalariga bag‘ishlangan turli tillardagi ishlarni o‘rganish bu hodisa yuzasidan bildirilgan nazariy qarashlarni uchta asosiy guruhga bo‘lish imkonini beradi.

Birinchi guruhning nazariy qarashlari bo‘yicha, “evfemizmlar ibtidoiy dunyoqarash (tabu) ta’sirida paydo bo‘lib, jamiyatning madaniy bosqichida yo‘q bo‘lib boradi”².

Ikkinchi guruh “evfemizmlar til fakti, passiv leksik qatlam sifatida mavjud”³ degan fikrni ilgari suradi.

Uchinchi guruhning nazariy qarashlari N. Ismatullaevning “Эвфемизмы в современном узбекском языке”⁴ nomzodlik dissertatsiyasida o‘z aksini topgan. Uning fikricha, evfemizmlar ayni zamonda, nutqiy vosita, uslub uchun ham xizmat qiladi.

A. Hojievning “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da evfemizmgа quyidagicha ta’rif beriladi: “**Evfemiz**m (yun. *euphemismos* <eu – yaxshi+*phemi* - gapiraman). Narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi; qo‘pol, beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol botmaydigan so‘z (ibora)ni qo‘llash. Mas., *ikkiqat*, *bo‘g‘oz* so‘zlari o‘rnida *homilador*, *og‘ir oyoqli* so‘zlari...”⁴, *o‘ldi* so‘zi o‘rnida *dunyodan o‘tdi*, *ko‘z yumdi*, *yuragi to‘xtadi*; *yolg‘on gapirmoq* o‘rnida *xato gapirmoq*, *xato qilmoq* iboralari qo‘llaniladi.

² Кацев Н.И. Эвфемизмы в современном английском языке: Автореф. дисс. ...докт. филол. наук.- Л., 1977.- С.21.

³ Ергазиева Н.И. Взаимосвязь прозвищ табу и эвфемизмов в казахском языке// Ономастика Узбекистана.- Т.: ИЯЛ АН Уз ССР, 1989.- С.120.

⁴ Исмаатуллаев Н.Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс...канд. филол. наук.-Т.,1963. – 19 с.

⁴ Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б.131.

Evfemizmlarning ma'no va xususiyatlari turlichadir. Ular qo'llanish maqsadlariga ko'ra ham turlicha qiymatga ega bo'ladilar. Evfemizmlarning paydo bo'lishi va nutqda ishlatilishiga ta'sir etuvchi omillar mavjud. Bunday omillar qatorida fors tilining ijtimoiy-stilistik differentsiatsiyasi va so'zlarning emotsional-ekspressiv bo'yog'ini (asosiy ma'no (mazmun)ga qo'shimcha tarzdagi emotsional-ekspressiv ma'no; *emotsional leksika* – so'zlovchining his-emotsiyalarini ifodalash xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar; emotsional bo'yoqdor so'zlar. Mas., *jilmaymoq, chehra, tabassum, o'ktam, do'ndirmoq* so'zlari ijobiy bo'yoqdor; *ustomon, ityaloq, mechkay, imonsiz* so'zlari salbiy bo'yoqdor so'zlar) ko'rsatish mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Har bir bob o'z mohiyatidan kelib chiqqan holda tegishli bo'limlar bilan yoritilgan.

Birinchi bob "Evfemizmlarni o'rganishning nazariy aspektlari" deb nomlanib, unda tabu va evfemizm, evfemizmlar klassifikatsiyasi borasidagi turli yondashuvlar, evfemalarning yondosh hodisalarga munosabati kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

Ikkinchi bob "Fe'liy va ismiy evfemizmlarnig struktur-semantik tahlili" deb nomlangan. Ushbu bobda ismiy va fe'liy evfemizmlarning tarkibiy turlari va so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi va metaforizatsiyasi, fe'lni idiomatik xarakterga ega bo'lgan fe'l birikmasiga almashtirish, yumshoq shaklda ifodalangan noidiomatik xarakterdagi fe'liy birikmalar ko'rib chiqilgan.

Uchinchi bob "Fors tilida evfemik va disfemik birliklarning funksional uslublarda qo'llanilishi" masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda evfemik vositalarning turli uslublarda qo'llanilishi ko'rib chiqilgan.

I BOB. EVFEMIZMLARNI O'RGANISHNING NAZARIY ASPEKTLARI

1.1. Tabu va evfemizm

Kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida, ayniqsa, kishilik jamiyatining ibtidoiy bosqichlarida ba'zi bir narsalar, harakatlar man etilgan. Ana shunday man qilish hodisasi tabu deb ataladi. Tabu so'zi polineziya tilidan (Tinch okeandagi orollarda yashovchi ko'chmanchi elatlar tili) olingan bo'lib, shaxsiy va diniy odatlar jihatdan biror narsani man etish, jumladan, ma'lum hayvonni ov qilish yoki o'simlikni sindirishni man etish bilan bog'liqdir.

Bu hodisa tilda ham uchraydi. Jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida kishilar o'rtasida jin, arvoq va shunga o'xshash ilohiy narsalarga ishonish juda kuchli bo'lgan. Bunday xalqlar jin va arvoqlarga yaqin bo'lgan shaxs yoki predmetning nomi tilga olinmasa, ulardan saqlanish mumkin, deb o'ylashgan. Qadimgi xalqlarda, shuningdek, hozir ham qabila bo'lib yashayotgan xalqlarda qabila boshliqlari o'lgandan keyin ularning narsalariga tegish, ularning nomini tilga olish man etilgan. Agar ularning narsalariga tegilsa yoki bu narsalarning nomi tilga olinsa, arvoqlar, jinlar urib ketadi, biror zarar yetkazadi, deb tasavvur qilganlar. Xuddi shuningdek, ayrim yirtqich, zaharli hayvonlarning nomlarini aytish ham man etilgan. Go'yo bunday hayvonlarning nomi tilga olingach, zarar yetkazishi mumkin emish. Tabu qoldiqlarini hozir ham uchratish mumkin. Masalan, musulmon ayollari orasida erlarini o'z ismi bilan chaqirishsa, bunday holat erga nisbatan hurmatsizlik sanalgan.

Oqibatda, man etilgan so'zlar o'rniga tushunchani ifodalovchi boshqa so'zni ishlatish zaruriyati tug'iladi. Ana shunday man etilgan so'zlar o'rniga boshqa so'zlarning ishlatilishi evfemizm deb ataladi. Masalan: *qizamiq* so'zi o'rniga *gul* so'zi, *chayon* so'zi o'rniga *eshak*, *oti yo'q* so'zlarining ishlatilishi evfemizm hodisalaridandir. Jamiyat taraqqiyotining keyingi davrlarida *dag'al*, *qo'pol*,

noqulay soʻzlar oʻrniga *yoqimliroq, silliqroq* soʻzlarni ishlatish hodisasi ham evfemizm koʻrinishlaridandir. Masalan, *oʻldi* soʻzi oʻrniga *vafot etdi, qazo qildi, dunyodan oʻtdi, dunyodan ketdi, jonini egasiga topshirdi, koʻzi yumildi* kabi soʻz yoki soʻz birikmalari ishlatiladi. Evfemizm adabiyotda stilistik vosita sifatida katta rol oʻynaydi. Jamiyatning baʼzi bir ijtimoiy guruhlari, mehnat qilmay tekinxoʻrlik bilan hayot kechiruvchilar, chunonchi, *oʻgʻri, bezori* va *qimorbozlar* oʻzlarining yomon niyatlarini boshqalardan yashirish uchun soʻzlarga har xil maʼno berib qoʻllaydilar. Bunday soʻzlarga **argo** deyiladi. Masalan, *oʻgʻirlamoq* soʻzi oʻrniga *ovqatlanmoq, oʻldirmoq* soʻzi oʻrniga *sallasini olib kelmoq* soʻzlarini ishlatadilar.

Tabu insoniyatning yozilmagan eng qadimiy qonuni sifatida taʼqiqar vositasida paydo boʻlgan. Bu termini ilk bor ingliz kapitani J.Kuk 1777 yilda qoʻllagan. Polineziya tilidagi maʼnosi asli “*tapu*”, *ta*: (ishoratlamoq, belgilamoq) va *pu*: (diqqatni tortuvchi, insonni chalgʻituvchi) deganidir. Tabu taʼqiqar, jamiyat rivojlanishining turli xil bosqichida yuzaga keladigan muhitni bildiradi. Turli xil shart-sharoitdan kelib chiqqan holda, bunday taʼqiqar til asosida ham vujudga kelishi mumkin. Din yoki axloq taʼqiqaridan farqli hisoblangan tabuning paydo boʻlish ildizlari ham uzoq tarix sahifalarida yashiringandir.

J.J. Varbotning koʻrsatishicha, “**tabu**” soʻzi bizning zamonimizda ikki maʼnoda qoʻllaniladi:

1) ibtidoiy odamlarning diniy taʼqiqarlari, yaʼni yuqori kuchlardan vujudga keladigan zararli oqibatlardan qochishni belgilash;

2) sotsial-siyosiy, tarixiy, madaniy, etnik yoki taʼsirchan dalillar oʻzaro bogʻliq belgilangan soʻz qoʻllashni taʼqiqarlash⁵.

J.J. Varbot keltirgan belgilarda diniy va sotsial tabular aniq keltirilgan. Shuningdek, I.S.Kon tabuni “diniy sanksiya bilan mustahkamlangan sotsial madaniy taʼqiqar” deb belgilagan.

Tabu etnik tushuncha boʻlib, qandaydir narsa yoki harakatning nomini aytishni man qilishdir. Bunday odatning tilga tatbiq qilinishi bilan lingvistik tabu

⁵ Варбот Ж.Ж. Табу. Русский язык. Энциклопедия. – М., 1998. – С.552.

yuzaga kelgan. O‘zbek tilida chayonning nomi tabulanib, uning o‘rnida *eshak*, *benom*, *nomi yo‘q* so‘zlari ishlatiladi.

Insonning nutq faoliyati axloqiy normalarga rioya qiladi. Axloqiy va madaniy jihatdan qo‘llanishi ta‘qiqlangan yoki noqulay deb topilgan so‘zlar o‘rniga boshqa so‘z va iboralarning qo‘llanishi *evfemizmlar* (grekcha euphemeo – “yumshoq gapiraman” ma‘nosida) deb ataladi. Misol: *yolg‘on gapirmoq* o‘rnida *xato gapirmoq*, *xato qilmoq* iboralari qo‘llaniladi. Evfemizmlarning ma‘no va xususiyatlari turlichadir. Ular qo‘llanish maqsadlariga ko‘ra ham turlicha qiymatga ega bo‘ladilar.

Evfemizmlarning ma‘lum qismi tabu bilan bog‘liq bo‘ladi. Evfemizmlarning ko‘pchilik qismi axloqiy va madaniy jihatdan aytilishi noqulay deb topilgan so‘zlar o‘rnida qo‘llanuvchi so‘z va iboralardir. Masalan: *qizamiq* o‘rnida *oyнома* (Samarqand viloyatining ayrim tumanlarida); *chechak* o‘rnida *gul*; *sil* (tuberklyoz) o‘rnida *uzun og‘riq*; *pes* o‘rnida *oq*; *kal* o‘rnida *siyqabosh*, *xotin* o‘rnida *umr yo‘ldoshi*, *rafiqa*, *qalliq*, *oila*; *xotin olmoq* o‘rnida *uylanmoq*; *qizimni erga beraman* o‘rnida *qizimni uzataman*, *qizimni turmushga chiqaraman* kabi so‘z va iboralarning qo‘llanishi evfemizmdir.

Tabu va evfemizmlar nafaqat adabiy-badiiy asarlarda ishlatiladi, balki ularni qo‘llash so‘zlovchidan katta san‘atni talab qiladi.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, evfemizmlar termini ostida qo‘pol, beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol botmaydigan so‘z (ibora)ni qo‘llash tushuniladi. Evfemistik iboralarning ishlatilishi ta‘qiqlash natijasi emas, balki “ekspressiv-stilistik va ijtimoiy omillar” tufaylidir. Shunday omillardan biri ***etika va xushmuomalalikka oid evfemizmlarning*** paydo bo‘lishi bilan bog‘liq.

Eronshunos olim L.S.Peysikovning fikricha, bunday evfemizmlar fors tilida juda keng tarqalgan bo‘lib, mazkur jamiyatda shakllangan axloq qoidalariga zid beadab so‘z va iboralarni almashtirish uchun xizmat qiladi⁵.

⁵ Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.:Наука, 1975. – С.124.

Murojaatda xushmuomalalik, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, kishining xatti-harakatiga munosabat bildirish yoki uni tavsiflash jarayonida betakalluf tuyulgan soʻz va iboralarni mulozamat soʻzlariga oʻzgartirishga toʻgʻri keladi. Bundan tashqari, u yoki bu soʻzni evfemistik qoʻllash, uni maqbul variantga almashtirish nafaqat voqea-hodisaga munosabat bildirish istagi, balki gapirayotgan (bayon qilayotgan) yoki yozayotgan kishining huquqiy holat (status)iga ham bogʻliq.

1.2. Evfemizmlar klassifikatsiyasi borasidagi turli yondashuvlar

Evfemizm hodisasi XX asr boshlarida umumtilshunoslikda J. Vandries⁶, L.A. Bulaxovskiy⁷ kabi tilshunoslar tomonidan soha bilan bogʻliq adabiyotlarda qayd etilgan boʻlib, ularning fikr-mulohazalari evfemizm mohiyati tavsifining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hodisani alohida millat, alohida jins vakillari (oltoy ayollari nutqi) misolida tadqiq etgan olimlar sirasiga A.N. Samoylovich⁸, N.A. Baskakov⁹larni kiritish mumkin. Ular evfemizmni etnik hodisa sifatida kuzatib, koʻpqirrali jihatlarini yoritishga harakat qilishadi. E.A. Agayan¹⁰, O.N. Turbachev¹¹lar ham maʼlum guruh mentalitet doirasida bu til hodisasini tadqiq etishdi. S. Otaev¹² turkman tili evfemizmlari, G.G. Musaboyev qozoq tili evfemizmlari, V.P. Dorbakova¹³ mongol xalqi evfemizmlari, N.G. Mixaylovskaya Uzoq sharq tillari – chukot, xanti-mansiy, nanay xalqlari tilida uchraydigan evfemizmlarni tahlil qilishgan. Shuningdek, tuva tilida

⁶ Вандриес Ж. Язык. – М.: Учпедгиз, 1937.

⁷ Булаховский Л.А. Введение в языкознание. Часть 2. – М.: Учпедгиз, 1953.

⁸ Самойлович А.Н. Женские слова у алтайских тюрков // Язык и литература. – Л., 1929. Т 3. – С. 124-125; Самойлович А.Н. Запретные слова в языках казах-киргизской замужней женщины. – СПб: Рус. вост. отд. общество. – 1915. – С. 167.

⁹ Баскаков Н.А. Пережитки табу и тотемизма в языках народов Алтая // Советская тюркология. – Баку, 1974. – №2. – С.3-9.

¹⁰ Агаян Э.А. Введение в языкознание. – Ереван: Университет, 1960. – С.269.

¹¹ Турбачев О.Н. Из истории табуистических названий // Вопросы славянского языкознания. Вып. 3. – М., 1958. – С.12.

¹² Атаев С. Эвфемизмы в туркменском языке: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Ашхабад, 1955. – С.21.

¹³ Дарбакова В.П. Омонимия. МНР // Ономастика. – М.: Наука, 1969. – С. 199-200.

uchraydigan evfemizmlar borasida S.P.Vanshteyn¹⁴, Sh.Ch.Sat¹⁵, ingliz tilida uchraydigan evfemizmlar xususida I.V.Arnold¹⁶ kabi tadqiqotchilar ham o‘z ishlarida ba’zi fikrlarni bildirishgan.

A.A.Reformatskiy¹⁷ tabu o‘rnida qo‘llanilayotgan evfemik birliklarni etnik taraqqiyot bilan bog‘liq deb hisoblaydi. Tabuning paydo bo‘lishiga turli bid‘at va xurofotlar sabab bo‘lganligini aytib, evfemizmlar uning nomini “yopish” uchun xizmat qilishini ta’kidlaydi. R.A.Budagov¹⁸ esa tabuning paydo bo‘lishiga insoniyatning e’tiqodi turtki bo‘lganligi va u ma’lum ma’noda tafakkur rivoji omillaridan ekanligini e’tirof etgan.

Evfemizm hodisasi B.A. Larin (1961)¹⁹, A.M. Katsev (1977), N.S. Boschayeva (1989), L.V. Artyushkina (2002), G.G. Kujim (2003) va boshqa tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, uning turli jihatlarini yoritilgan. Masalan, L.V.Artyushkina²⁰ evfemizmlarning almashinishi va semantik tiplarini tadqiq etgan bo‘lsa, N.S.Boschayeva²¹ tomonidan uning pragmatik aspekti keng o‘rganildi. G.G. Kujim²² evfemizmni tilning “melirativ” vositasi sifatida tadqiq qiladi, A.M. Katsev²³ uni ijtimoiy psixologik jihatdan talqin etdi. Bu hodisaning qayta nomlash bilan bog‘liq tomoni esa N.M.Berdova²⁴ tomonidan tadqiq etilgan, Ye.P. Senechkina evfemizmlarning daxldor belgilarini ko‘rsatdi.

XXI asrdan boshlab rus tilshunosligida evfemizm mavzusi doirasida 156 ga yaqin nomzodlik dissertatsiyalari yoqlangani bu hodisani o‘rganishning rivojidan dalolat beradi.

¹⁴ Ванштейн С.П. Личные именно-термины родства и прозвища у тувинцев // Ономастика. – М.: Наука, 1969. – С. 128-131.

¹⁵ Сат Ш.Ч. Табу и эвфемизмы в тувинском языке // Советская тюркология. – Баку, 1981. – С. 45.

¹⁶ Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1959. -С.12-55.

¹⁷ Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М.: РАН, 2005.

¹⁸ Будагов Р.А. Введение в науку о языке. – М.: Индрик, 2003.

¹⁹ Ларин Б.А. Об эвфемизмах // Ученые записки ЛГУ. – Л., 1961.

²⁰ Артющкина Л.В. Семантический аспект эвфеместической лексики в современном английском языке: Дисс...канд. филол. наук. – М., 2002.

²¹ Босчаева Н.Ц. Контекстуальная эвфемия в современном английском языке. – Л.: Наука, Ленинградское отд., 1989.

²² Кужим Г.Г. Универсальный лингвистический закон триады: Дисс...канд. филол. наук. – Армавир, 2003.

²³ Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке. – Л.: Наука, 1977.

²⁴ Бердова Н.М. Эвфемизмы в свете теории вторичной номинации: Дисс... канд. филол. наук. – М., 1998.

O‘zbek tilshunosligida bu atama 1963-64 yillarda N.Ismatullaevning “Hozirgi o‘zbek tilida evfemizmlar”²⁵ nomli dissertatsiyasi orqali o‘rnashdi. 1997 yilda A.Omonturdiyev evfemizmi “uslubshunoslikning tadqiqot ob’ekti sifatida allaqachon o‘z yechimini topishi kerak bo‘lgan mavzu”²⁶ sifatida keng doirada o‘rganib, o‘zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qiladi.

Tilshunos M. Mirtojievning “O‘zbek tili semasiologiyasi” monografiyasida tabu va evfemizm hodisalarining munosabati, ularning o‘rganilish tarixi masalalariga alohida e‘tibor qaratiladi. Olim evfemik ma‘noning hosila ma‘no ekanligi, bu hosila ma‘nolar metaforik, metonimik usullarda vujudga kelishini, sinekdoxik va vazifadoshlik asosida evfemik ma‘no paydo bo‘lmasligini ta’kidlaydi²⁷.

Aytib o‘tish kerakki, evfemizm xususida tilshunos olimlar tomonidan yo‘l-yo‘lakay ham fikrlar bildirilib, unga turli tomondan yondoshilgan. Masalan, H. Shamsiddinov so‘zlarning evfemik funksional-semantik sinonimlari²⁸ haqida fikr-mulohazalarini bildirsa, A.E.Mamatov doktorlik ishida frazeologizmlarning evfemik va disfemik shakllanishiga alohida to‘xtaladi²⁹. Shuningdek, ayrim badiiy til bilan bog‘liq ishlarda ham til birliklarining evfemik ma‘nosiga e‘tibor qaratiladi. Jumladan, “Boburnoma” leksikasini maxsus tadqiq qilgan olim Z.Xolmonova³⁰ unda qo‘llangan evfemizmlar xususida ayrim fikrlarni bayon etgan. Tilshunos M. Mirtojievning “O‘zbek tili semasiologiyasi” monografiyasida evfemizmlarga maxsus o‘rin ajratilgan³¹.

²⁵ Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1963. – С.19.

²⁶ Омонтурдыев А.Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди...дисс. – Тошкент, 1977. – Б. 176.

²⁷ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 119-127.

²⁸ Шамсиддинов Х. Сўзларнинг эвфемик функционал-семантик синонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1997. - № 6. – Б. 22.

²⁹ Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 1999.

³⁰ Холмонова З.Т. Бобурнома лексикаси тадқиқи: Филол фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009.

³¹ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 119-127.

A. Hojievning 1985 yilda qayta nashr qilingan “Lingvistik terminlar izohli lug‘ati”da evfemizmga izoh beriladi³².

Ma’lum bo‘ladiki, evfemizm o‘zbek tilshunosligida disfemizmga nisbatan kengroq o‘rganilgan bo‘lib, bugungi kunga qadar yuqorida sanab o‘tilgan olimlar tomonidan uning asosiy nutqiy xususiyatlari tadqiq etilgan.

Hozirgi kunda tilshunoslikda evfemiya hodisasi va evfemizmlar borasida qator tadqiqotlar olib borilgan. Lekin, o‘zbek va rus tilshunosligida bu hodisaning o‘rganilish salmog‘i katta bo‘lsada, tilshunoslik doirasida uning talqin etilishida yakdillik kuzatilmaydi.

Ko‘pchilik olimlarning diqqati evfemizmning ta’qiq va niqoblash vazifasini bajarish xususiyatiga ega ekanligiga qaratilgan bo‘lishiga qaramasdan, evfemiyaning yagona interpretatsiyasi (ma’nosi) yo‘qligini ta’kidlashadi.

Ne’mat Ismatullaev birinchi bo‘lib tabu va evfemizm hodisasiga doir boy ma’lumotlar to‘plagan, ularga munosabat bildirib umumlashtirgan, tabu va evfemizm hodisasini yoritgan, ilmiy va amaliy jihatdan asoslagan.

N. Ismatullaev o‘zbek tilidagi evfemizmlarning paydo bo‘lish sabablari haqida gapirgach, ularni tasnif qiladi, guruhlaydi va har bir sotsial qatlam nutqida qo‘llanadigan evfemizmlarning muomaladagi ahamiyatini, lug‘at tarkibini boyitishdagi qimmatini tahlil qilib, ilmiy-amaliy xulosalarga kelgan³³. Natijada bu ish shu soha bilan bog‘liq masalalarni, jumladan, evfemizmlarni keyingi bosqichda, ya’ni uning funksional uslubiy xususiyatini monografik rejada o‘rganishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tabu va evfemizm mavzusi ana shu mavjud ishlardan ijodiy foydalanilgan holda birinchi marta 1983 yilda oliy maktab uchun tuzilgan “O‘zbek tili stilistikasi” nomli darslikda ancha keng yoritilgan. Unda mualliflar tabu va evfemizmlarga doir umumiy ma’lumot berish bilan birga, uning nutq vositasi sifatida ahamiyati, hatto kontekstual individual evfemizmlar haqida ham to‘xtalib

³² Хожиев А. Лингвистик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 109.

³³ Исматуллаев Н. Ҳозирги ўзбек тилида эвфемизмлар: ТошДПИ Илмий асарлар тўплами. Т.42. 1-китоб. – Т., 1963.-Б. 8,19-28, 3-59.

o'tgan³⁴. Tabu va evfemizm ibtidoiy din, ongi ojiz odamlarning g'ayritabiiy dunyoqarashi, xurofot, bid'at, rasm-rusumlar ta'sirida paydo bo'lgan eskilik qoldiqlari bo'lib, jamiyatning keyingi taraqqiyotida – madaniylashgan bosqichlarida yo'q bo'lib boradi, degan qarashlar³⁵ o'zini oqlamaydi.

Tabu va evfemizmning paydo bo'lishidagi sabab, zaruriyat va qonuniyatlar, ularning evolyutsion taraqqiyoti, tabulashtirish asoslari, xarakteri, evfemizmlarning o'rganish ob'ekti, mezon va me'yorlari, ko'lami, chegarasi, til tizimi (sathi)ga munosabati, evfemizmning shakllanishida, evfemik ko'chishda metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlikning roli; evfemik ma'noning 1) omonimiya, polisemiya, sinonimiyaga munosabati; 2) nutqning badiiy vositalari (frazologiya, maqol, matal, aforizm, epitet, allegoriya kabi), ya'ni leksik-sintaktik figuralar, ekspressiv-emotsional ifodalarga munosabati, qisqasi, uslubiy funksional xususiyatlari tasnifi va tasniflash asoslari, o'rganish metodlari kabilar ilmiy rejada ishlanmagan.

Ayrim manbalarda evfemik vositalar tor doirada, til fakti, passiv leksik birlik deb qaralgan³⁶. Holbuki, evfemik hodisa tilning muayyan bir sathida, til sifatidagina emas, balki nutqiy qatlam, ya'ni semantik-funksional metodga asoslangan badiiy tasviriy vositalar: trop yoki leksik-sintaktik figuralar sifatida tahlil qilingan.

Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemik qatlami ham rivojlanib boradi. Yangi axloq-odob, yangicha dunyoqarash normalari asosida tabulashtirishning, shu tufayli qo'llaniladigan evfemalarning ham yangi-yangi formalari maydonga keladi. Bunda ibtidoiy tabulashtirish talablaridan farqli o'laroq aytilishi norma bo'lib kelgan ko'pgina so'z va iboralar o'rnida unga (oldingisiga) nisbatan yanada qulay, so'zlovchi va tinglovchi uchun yanada yoqimliroq bo'lgan iboralar qo'llanadi.

³⁴ Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1983. – Б.66.

³⁵ Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке. – Л.: Наука, 1977. – С.17.

³⁶ Ергазиева Н.И. Взаимосвязи прозвищ, табу и эвфемизмов в казахском языке // Ономастика Узбекистана. –Т.: ИЯЛ АН Уз ССР. - 1989. – С. 120.

Inson nutqi uning ehtiyojidan orqada yurganidek, evfemalar ham qanchalik go‘zal, beozor, nozik ma’no ifodalamasin, u tabulashtirilgan tushunchalarning salbiy mohiyatini – xossasini to‘la yoritolmaydi, xotiradan bartaraf qilolmaydi. Boshqacha qilib aytganda, aytilishi uyat yoki biror ko‘ngilsiz, noxush dahshatli voqelik qanchalik tabulashtirilmasin, unga nisbatan yangi-yangi evfemalar qo‘llanmasin, o‘sha uyat yoki noxush voqelik – tushuncha (a‘zodagi yomon o‘simtadek) o‘zini namoyon qilaveradi. Masalan, *nomusiga tegibdi, zo‘rlabdi* evfemalari o‘sha uyat so‘zlarni va u orqali anglashiladigan tushunchani xotiradan bartaraf qilolmaydi. Shu bois ham nutqda noqulay, noxush tushunchalarni beozor formada ifodalashga moyillik borgan sayin kuchayib boraveradi, buni til egalarning tabiiy va zaruriy ehtiyoji, muayyan axloq normalari boshqaradi.

Ijtimoiy tasnif evfemizmlar mohiyatini ochishda o‘ziga xos o‘rin tutadi. U so‘zning ma’lum ijtimoiy guruhga tegishliligi asosida amalga oshiriladi. Misol tariqasida B.A. Larin³⁷ tasnifini keltirish mumkin.

Ayrim tadqiqotchilar tomonidan evfemizmlarning lingvistik tasnifi ham amalga oshirilgan.

O‘rganilayotgan hodisaning tasnifi o‘zbek tilshunoslarining e’tiboridan ham chetda qolmagan. N. Ismatullaev³⁸ evfemizmlarni 5 yirik guruhga ajratadi. Bular tabu bilan bog‘liq evfemizmlar, bid‘at, irim qilish bilan bog‘liq evfemizmlar, ma’nosi qo‘pol, aytish noqulay bo‘lgan so‘z va iboralar o‘rnida qo‘llanadigan evfemizmlar, nutqiy bezaklilik, ko‘tarinkilik va diniy maqsadlar uchun qo‘llanadigan jargon evfemizmlar, stilistik evfemizmlardir. Semantik guruhlariga ajratilgan ifodalar tasnifi esa A.Omonturdiev³⁹ tomonidan tadqiq qilingan ilmiy ishda o‘z aksini topgan.

Fors tilshunosligining muhim masalalaridan biri evfemizmlar mavzusidir. Mazkur mavzu bo‘yicha Rossiyada ham, O‘zbekistonda ham eronshunoslar

³⁷ Ларин Б.А. Об эвфемизмах. Ученые записки ЛГУ. – Л., 1961. - С.56.

³⁸ Исмагуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дис...канд. филол. наук. – Т.: - 1963. – Б. 78.

³⁹ Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ...дисс. – Тошкент, 1977. – Б. 176.

tomonidan maxsus tadqiqot amalga oshirilmagan. Faqat ayrim ilmiy asarlardagina ozmi-ko'pmi bu haqda qisqacha ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalarida, ba'zi maqolalarda evfemizmlar va ularning nutqdagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Tadqiqot davomida, avvalo, evfemizm atamasining fors tilidagi variantini izlashga kirishdik. Evfemizm atamasi fors tilida Dr. Mohammad Fallahi Moghimiyning "Dictionary of linguistics & language learning" kitobida quyidagicha ta'riflangan⁴⁰.

خوش آهنگی-خوشایندی صوتی: در مبحث آواشناسی

دلپذیر: عبارات است از به کار بردن واژه مطلوب و دلپذیر به جای کلمه نامطلوب

Internet saytlaridagi elektron lug'atlarda esa quyidagicha ta'rif berilgan:

استعمال کلمه نیک و مطلوبی برای موضوع یا کلمه نامطلوبی در ادبیات فارسی.

Shu bilan birga tabu so'zining ham forscha tarjimasini mashhur eron tilshunosi Parviz Xonlarining "*Zabānshenāsi va zabān-e fārsi*" (Tehron, 1383) asarida uchratdik⁴¹. Unda "tabu" so'ziga nisbatan "الفاظ حرام" hamda "تابو" "birikmasi qo'llanilgan.

Fors tilida evfemizm va tabu mavzusi bo'yicha asosan Л.С.Пейсиков o'zining "Лексикология современного персидского языка" (M., 1975) kitobida evfemizmlarning ayrim turlari haqida qisqacha to'xtalib o'tganlar, A.Quronbekovning "Fors tili leksikologiyasi" (T., 2009) kitoblarida ham evfemizm haqida yetarlicha ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga D.A. Azimdjano vaning "Синонимия глагольной лексики современного персидского языка" (T., 1997) nomzodlik dissertatsiyasida esa evfemizmlar fe'liy sinonimik qatorning boyish manbalaridan biri sifatida ko'rib chiqiladi. M.S. Uzina "О вежливых эквивалентов местоимений в современном персидском языке" (M., 1976) hamda F.I. Zulfigarova "Идиоматические выражения в персидском языке" (Баку, 1969) avtoreferatlarida fors tilida evfemizmning va tabu so'zlarning

⁴⁰ Dr. Mohammad Fallahi Moghimi, Dictionary of linguistics & language learning. Tehran.: Publication of Iran University of Science and Technology, 1997. C. 128

qo‘llanilishi bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan. Parviz Xonlarining “*Zabānšenāsi va zabān-e fārsi*” (1383) asarida biz asosan tabu so‘zlar haqida ma‘lumotga ega bo‘ldik chunki ushbu asarda evfemizmlar haqida deyarli to‘xtalib o‘tilmagan faqat qo‘rquv, irim-sirim hamda diniy tomonlama aytilishi ta‘qiqlangan so‘zlar haqida ma‘lumot olishga muvaffaq bo‘ldik. Fors tili tarixida “*rūspi*” “yengiltak”(o‘rta fors t.-*rūspik, ruspēt*, so‘zma-so‘z: “oq yuzli”. Bu so‘z evfemizm bo‘lib kelganida buning aks ma‘nosini ifodalaydi *rusiyāh* “qora yuzli” “sharmanda bo‘lgan” . Ammo bu *rūspi* so‘zi hozirda arxaizmlar qatoriga kiritilib, uning o‘nida *ma‘rufe* (taniqli) va *našme*(hordiq) so‘zlari qo‘llaniladi deb aytadi Parviz Xonlari.⁴² Uning ma‘lumot berishicha Eronning ba‘zi qismlarida “qo‘rqinchli” narsalar yomonlik, baxtsizlik olib kelmasin deb “o‘z nomi bilan atashmas ekan. Masalan, Tehronda kech tushganda asosan “jin” “shayton” so‘zlarini ishlatmaslikka harakat qilishadi. Uning o‘rniga “*az mā behtarān*” (bizdan yaxshilar). Yana ba‘zi bir viloyatlarida *andarā* “shayton” (*tarj. kiring! ya’ni “yaxshilik”* qilish uchun uyga kirishga taklif qilmoq) yoki *unā* “ular” deb aytilish holatlari ham uchraydi. Fors provinsiyasi tomonlarida kechqurunlari “*ilon*” so‘zini ishlatishdan qochib uning o‘rniga *band-e chāh*, Kermonda esa *čubgaz* so‘zlari ishlatiladi

1.3. Evfemalarning yondosh hodisalarga munosabati

Evfemik ma‘noni mezonlash, uni yondosh hodisalardan chegaralash, avvalo, tasviriy vositalarning, chunonchi, ko‘chim, trop, sintaktik yoki nutqiy figuralarning qay darajada ishlanganligi bilan bog‘liq. Bu sohada katta yutuqlar qo‘lga kiritilgan bo‘lsa-da, hali qator masalalar, chunonchi, adabiy uslubning vazifaviy tasnifi (so‘zlashuv, rasmiy, ilmiy, publisistik, badiiy)⁴³, mezon va chegaralari, emotsional -ekspressivlik darajasi (yuqori, o‘rta, quyi uslub darajalari) professional nutq turlari yoki sotsial qatlam nutqi (o‘qituvchi, imom – xatib, shifokor, yurist, chorvador, savdogar, ovchi, baliqchi, binokor kabilarning nutqi), nutqning

101 خانلری پرویز. زبانشناسی و زبان فارسی. چاپ ششم. انتشارات توس. ۱۳۷۳ ص 42

⁴³ Кўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиёв Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1992.- Б.76-77.

ekstralingvistik, sotsio-lingvistik, psixolingvistik, etik-estetik, intonatsion asoslari tadqiq talabdir.

Nutq uslublarini muvaffaqiyatli o'rganish eng ko'p ko'chim hodisasi bilan bog'liq, ko'chim esa barcha turdagi badiiy vositalar, majoziy tushunchalar, jumladan, evfemik ma'nolarning shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi, tilni "ma'nolar xazinasini bilan boyitadi".

Quyida 1) evfemik ma'no mezonlari va ko'lamini belgilash; 2) ularni yondosh, o'xshash, turdosh yoki jinsdosh hodisalardan farqlash va umuman evfemiyaning o'rganish ob'ektini belgilash haqida to'xtalamiz.

Evfemik ma'no mezonini va uning ko'lamini, ob'ektini belgilashda, birinchidan, til evfemik qatlaminin shakllanishiga asos bo'lgan sotsiopsixologik, etnolingvistik omillarni nazarda tutish muhimdir. Chunki sotsiopsixologik, etnolingvistik omillar kishilarning borliqqa munosabati bilan bog'liq holda kelib chiqqan turli urf-odat, rasm-rusumlarning shakllanishiga sabab bo'ladi va so'ngra bu jarayon tilga ko'chadi. A.A. Reformat'skiy "Evfemizm tarixiy-etnografik kategoriyadir" deganda evfemik ma'noning shakllanishidagi ana shu davrni nazarda tutgan. So'ngra ilm-fan, ma'rifat va ma'naviyatning taraqqiyoti, jamiyat a'zolarining ma'naviy va dunyoviy fikrlashlari, etik-estetik qarashlarning o'sishi, yangicha odob-axloq normalarining shakllanishi bilan til evfemik qatlaminin ham xarakteri, sotsiopsixologik asoslari o'zgaradi va bu jarayon ham tilga ko'chadi.

Birinchi galda bu holat til evfemik qatlaminin mundarijasini belgilab beradi. Madaniy jamiyatda evfemik vositalar til egalarini birorta xavf-xatardan saqlovchi "kuch" emas, balki xotirada noxushlik, salbiy kayfiyat uyg'otadigan, kishining izzat nafsiga tegadigan, unga malol keladigan, hurmatsizlik ifodalaydigan uyat, ayb, nomussizlik, behayolik hisoblangan holatlarning yoki to'g'ridan to'g'ri aytish mumkin bo'lmagan, maxfiy voqeliklarning salbiy ta'sirini xotiradan quvish, uzoqlashtirish, yashirish, yopish, noxush xabarni beozorroq, yumshoqroq formada berish uchun xizmat qiladi.

Sh.Rahmatullaev “Frazeologik sinonimlarga stilistik bo‘yoq” masalasini talqin qilish munosabati bilan sinonimiya uyalarini ijobiy va salbiy mundarijali frazeologik biriliklarga ajratadi va quyidagicha yozadi: “Salbiy voqelikni anglatuvchi sinonimiya uyalarining ba’zisi evfemizmdir. Evfemizm salbiy voqelikni atashdan qochish, shunday voqelikning salbiy ta’sirini yumshatish uchun xizmat qiladi. Bunday evfemizm iboralarda go‘yo ijobiy-stilistik bo‘yoq mavjuddek tuyuladi. Masalan, *dunyodan o‘tmoq*, *ko‘zini yummoq*, *dunyodan ketmoq* sinonimiya uyasida har uch ibora evfemizm bo‘lib, atalayotgan voqelikning salbiy ta’sirini yumshatish ikkinchisida eng kuchli⁴⁴.”

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, evfemizmlar narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi sifatida tilning tasviriy imkoniyatlari boyishi uchun xizmat qiladi. Olib borilgan tahlillardan quyidagi xulosalar kelib chiqadi. Evfemik vositalarni qo‘llash uzoq tarixga ega bo‘lsa-da, fors tilida ham, o‘zbek tilida ham eng kam o‘rganilgan. Evfemik vositalar dastlab diniy, keyinchalik dunyoviy fikrlash, masalan, odob-axloq normalari, muomala odobi talabi asosida shakllangan. Evfemik vositalar evfemik sinonimiyani hosil qiladi.

⁴⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Т.: Фан, 1966. - Б.263.

II BOB. FE'LIY VA ISMIY EVFEMIZMLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI

Fors tilida evfemik vositalarni struktur jihatdan ikki guruhga: fe'liy va ismiy evfemizmlarga ajratish mumkin. Materiallar tahlili fors tilida ismiy evfemizmlardan ko'ra fe'liy evfemizmlar soni katta qismni tashkil etishini ko'rsatdi.

2.1. Fe'liy evfemizmlarning tarkibiy turlari

Tadqiqotimiz davomida to'plangan materiallar tahlili fe'liy evfemizmlarning tarkibiy qismini yasash jihatdan 4 turga bo'lib o'rganish imkonini berdi: sodda, prefiksli, qo'shma hamda frazeologik fe'liy evfemizmlar.

2.1.1. Sodda fe'liy evfemizmlar

Fe'llardan qo'pol ma'noli hisoblangan sodda fe'llarni yumshatish va yuqori uslubiy tus berish uchun sodda fe'liy evfemizmlar qo'llaniladi.

خوردن *xordan* “tanovul qilmoq”, “ovqatlanmoq”, نوشیدن *nušidan* “ichmoq” fe'llari o'rnida bu fe'lning ancha yumshoq ekvivalenti آشامیدن *āšāmidan* “ichmoq”, “emoq” fe'li ishlatilishi juda ko'p hollarda uchraydi. Shu bilan birga fors tilida بگیرید *begirid* “oling” bu so'zning ancha yumshoq ma'nodoshi بفرمایید *befarmāyid* so'zi ishlatiladi.

ماهی را در آورد و پیچید تو کاغذ و گفت:

بفرمایید

“*Māhi rā dar āvard va pičid tu kāqaz va goft:*”

Befarmāyid [9:17]

“Baliqni olib qog'ozga o'rab dedi:” “Oling”.

Shu bilan birga “iltimos, ayting”, “gapiring” ma’nolarida ham بفرمایید *befarmāid* so‘zi ishlatiladi.

فرمودید یکی از آلبوم ها ... آلبوم یعنی چیست؟

Farmudid yeki az ālbūmhā... ālbūm ya ’ni čist? [9:200]

“Albomlardan biri haqida gapiringiz albom o‘zi nima?”

Ushbu gapda فرمودید *farmudid* so‘zi گفتید *goftid* so‘zi o‘rnida qo‘llanilib hurmat bo‘yoqdorligini kuchaytirib kelgan.

2.1.2. Prefiksli fe’liy evfemizmlar

Prefiksli fe’llar sodda fe’l va affiks (old qo‘shimcha) yordami bilan yasaladi. Fors tilida بر، باز، فرا، واد، فرو، واد، در، واد va boshqa old qo‘shimchalar mavjud.

Fors tilida مردن *mordan* “o‘lmoq” ma’nosida در گذشتن *dar gozaštan* “dunyodan o‘tmoq” prefiksli fe’lini keltirish mumkin.

پدربزرگم در چهارم ژانویه سال 1983 در گذشت

Pedarbozorgam dar chahārom-e jānvie sāl-e 1983 dar gozašt [1:143]

“Bobom 1983-yil 4- yanvarda vafot etdi”.

در گذشتن *dar-gozaštan* fe’li klassik fors-dariy tilida “o‘tmoq”, “ko‘tarilmoq”, “voz kechmoq”, “e’tibor bermaslik” ma’nolarida qo‘llanilgan. Hozirgi fors tilida bu fe’l “*vafot etmoq*” ma’nosida ishlatiladi⁴⁵.

2.1.3. Qo‘shma fe’liy evfemizmlar

Qo‘shma fe’llar ot (yoki sifat hamda boshqa so‘z birikmalari) va ko‘makchi fe’l yordamida yasaladi. Qo‘shma fe’l tarkibiga kirgan sodda fe’llar asosan o‘zlarining leksik ma’nolarini yo‘qotib, ko‘makchi fe’l vazifasini bajaradilar.

وقتی چای و شربت میل میکنند قیافه مرا ببینند

Vaqtī čāy va šarbat meyl mikonand qiyāfe -ye marā bebinand [9:356]

⁴⁵ Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Наука, 1975. – С.125.

“Choy yoki sharbat ichayotgan paytlarida mening qiyofamni ko‘rsinlar”.

Ushbu gapda qatnashgan **نوشتیدن** *meyl kardan* qo‘shma fe‘li gapda **نوشتیدن** *nušidan* “ichmoq” fe‘li o‘rnida qo‘llanilgan. Shu bilan birga ko‘p hollarda **خوردن** *xordan* “emoq” fe‘li o‘rnida ham ishlatiladi.

اکنون همایون پی برد که چرا بهرام آنقدر هما را دوست داشت

Aknun Homāyun pey bord ke čerā Bahrām ānqadr Homā rā dust dāšt [6:75]

“Ana endi Bahrom nega bunchalik Humoni yaxshi ko‘rishini tushundi”.

آن روز بهرام متوجه نشده بود

Ān ruz Bahrām mutavajjeh našode bud [6:78]

“O‘sha kuni Bahrom e‘tibor bermagan edi”.

Har ikkala gapda ishlatilgan **پی بردن** *pey bordan*, **متوجه شدن** *motavajjeh šodan* qo‘shma fe‘llari aynan bir ma‘noda ishlatilgan, ya‘ni **فهمیدن** *fahmidan* “tushunmoq”, “anglamoq” fe‘li o‘rnida ishlatilgan:

متوجه شدن *motavajjeh šodan* “e‘tibor bermaq”

فهمیدن – **ملفت شدن** *moltafet šodan* “tushunmoq” (“e‘tibor qaratmoq”) **پی بردن** *pey bordan* “tushunmoq”, “anglamoq”.

Ko‘rib turganimizdek, bir ma‘noda turli fe‘llar ishlatilishi mumkin ekan. Demak, evfemizmlar bevosita sinonimik qator tashkil etishda ham alohida o‘rin tutadi.

2.1.4. Frazeologik fe'liy evfemizmlar

Frazeologik birikmalar alohida soʻzlar kabi nominativ funksiyani bajaradi. Bunday birikmalar tilda idiomatik birikmalar (yun. *idioma* – oʻziga xoslik) deb ham yuritiladi⁴⁶. Feʼl soʻz turkumlarga koʻproq frazeologik modelda soʻz yasash xosdir. Shuning uchun tadqiqot davomida frazeologik feʼliy evfemizmlar ham tahlil qilindi.

میخواهد آنجا خودش را سر به نیست بُکند

Mixāhad ānjā xudaš rā sar be nist bekonad [6:77]

“Oʻzini oʻsha yerda oʻldirishni xohlaydi”.

Ushbu gapdagi **خودش** frazeologik birikmasi *sar be nist kardan* **سر به نیست کردن** Ushbu gapdagi **خودش** frazeologik birikmasi *sar be nist kardan* frazeologik birikmasi **خودش** *xudaš rā koštan* “oʻzini oʻldirmoq” feʼlining yumshoq shakldagi sinonimi sifatida ishlatilgan.

دیروز رفتیم شاه عبد العظیم، همان پهلوی قبر بهرام میرزا او را به خاک سپردیم

Diruz raftim Šāh Abdulazim, hamān pahlū-e qabr-e Bahrām Mirzā u rā be xāk sepordim [6:80]

“Kecha Shoh Abdulazimga bordik, oʻsha Bahrom Mirzoning qabri oldiga uni yerga qoʻydik”.

Yuqoridagi gapda **سپردن به خاک** *be xāk sepordan* feʼli **دفن کردن** *dafn kardan* “dafn qilmoq” feʼli oʻrnida qoʻllanilgan.

برود یکی از بندر ها و باقی زندگیش را در آنجا به سر ببرد

Beravad yeki az bandarhā va bāqi-e zendegiyaš rā dar ānjā be sar bebarad [6:78]

“Portlardan biriga borsa-yu umrining qolganini oʻsha yerlarda yashab oʻtkazsa”.

⁴⁶ Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – Toshkent, 2009. – B. 3.

Ushbu gapda qo‘llanilayotgan *به سر بردن* *be sar bordan* frazeologik birikma *زندگی کردن* *zendegi kardan* “yashamoq” so‘zi o‘rnida kelib, gapning ta’sirchanligini oshirish maqsadida qo‘llanilgan.

Fe‘l orqali ifodalangan evfemik vositalarning so‘nggi turi nofaol tuzilmalarni (ya’ni harakat sub’ekti to‘ldiruvchi orqali, harakat ob’ekti esa ega orqali ifodalangan tuzilmalar) qo‘llashdan iborat. Yu.A.Rubinchikning ko‘rsatishicha, bunday tuzilmalar “uslubiy bo‘yoqqa ega”⁴⁷, shuning uchun biror harakatning evfemizatsiyasida ishtirok etishi mumkin.

Masalan:

او پول را صرف کرده است *u pul-rā sarf karde ast* “u pul sarflagan” iborasini *پول صرف شده است* *pul sarf šode ast* “pul sarflangan” nofaol tuzilma bilan almashtirish mumkin.

Albatta, bunday tuzilmalarning evfemistik xarakteri va ishlatilish maqsadi kontekstda oydinlashadi. Shu sababli har bir muayyan holatda ular qo‘llanadigan mazmun qurshovi va maqsad e’tiborga olinishi kerak.

2.1.5. So‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi va metaforizatsiyasi

So‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi, ularning metafora asosida yangi ma’no hosil qilishi evfemik vositalarning vazifalaridan sanaladi. Evfemizmlar “tropning (yun. *tropos* – ko‘chirma oborot, kinoya) ko‘rinishlaridan biri”⁴⁸ bo‘lsa-da, undan vazifasiga ko‘ra jiddiy farqlanadi. Troplar, ya’ni ko‘chimlar voqelikni obrazli ifodalash uchun xizmat qilsa, evfemizmlar narsa-hodisani yumshoq shaklda qo‘llashda ishlatiladi.

Evfemalashtirish maqsadida ko‘chma ma’noda qo‘llaniladigan fe‘llar quyidagilardir:

⁴⁷ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – Москва: Восточная литература, 2001. -С. 261.

⁴⁸ Ларин Б.А. Об эвфемизмах// Проблемы языкознания. –Л., 1961.С.120.

آسودن *āsudan* “tinchlanoq” (*ko‘chma ma’nosi* “o‘lmoq (vaqti-soati bitmoq)”);

آسوده کردن *āsude kardan* “tinchlantirmoq” (*ko‘chma ma’nosi* “o‘ldirmoq”);

آبستن کردن *ābestan kardan* “og‘iroyoq qilmoq” (*ko‘chma ma’nosi* “pora berib sotib olmoq”);

ناخوش کردن *nāxuš kardan* “kasal qilmoq” (*ko‘chma ma’nosi* “sha’nini bulg‘amoq”) va b.

دختر مرا برای خدمتکاری بردی و هزار بلا سرش آوردی ناخوشش کردی

Doxtar-e marā barāye xedmatkāri bordi va hezār balā sar-aš āvardi, nāxuš-aš kardi[3:72]

“Qizimni xizmatkorlikka olib borib, boshiga ming baloni yog‘dirding, sha’nini bulg‘ading”.

اورا به مشروبفروشی کوچکی واقع در میدان دوفین برد و مرد را شارژ کرد

U-rā be mašrubforoši- ye kuček-i vāqe’ dar meydān-e Dofin bord va mard-rā “šārž” kard [8:53]

“Uni “Do‘fin” maydonidagi kichkina mayxona (bar)ga olib bordi va (erkakni) ichirib mast qildi”.

Bu o‘rinda شارژ کردن *šārž kardan* fe’li to‘g‘ri ma’noda “zaryadlamoq (elektr bilan)” (ya’ni ot qismi yevropa tilidan o‘zlashgan so‘z (ingl. *charge* “zaryadlash” (elektr bilan)dan iborat) kinoya ma’nosida “ichirib mast qilmoq” ko‘chma ma’nosini kasb etgan.

کشتن ایراج برای من کاری ندارد من خیلی آسان میتوانم اورا برای همیشه آسوده نمایم

Koştan- e Irāj barāye man kār-i nadārad. Man xeyli āsān mitavānam u-rā barāye hamiše āsude namoyam [4:275]

“Irojni o‘ldirish menga ish emas. Men uni osongina bir umrga tinchitishim mumkin”.

2.1.6. Sodda fe'lni idiomatik fe'liy birikmalarga almashtirish orqali evfemizmlarning ifodalanishi

Fe'lni idiomatik xarakterga ega bo'lgan fe'l birikmasiga almashtirishni evfemik vositalarning biri sifatida ko'rsatish mumkin. Bunday fe'liy iboralar nutqqa ekspressivlik, obrazlilik bag'ishlaydi, hazil, mazax, piching, kesatiq kabi semalarni ifodalaydi.

Ekspressiv evfemalarning shakllanishida bo'yoqdor semali so'zlar, majoziy ma'noli vositalar muhim rol o'ynaydi. Idiomatik xarakterdagi fe'liy iboralarning ma'nosi har doim ham tarkibiy qismlarining ma'nosidan kelib chiqavermaydi. «Fe'liy iboralar fe'lga xos barcha xususiyatlarga ega»⁴⁹, shu sababli fe'llarni idiomatik fe'liy iboralarga almashtirish mumkin.

Masalan:

میل داشتن *meyl dāštan*, آرزو کردن *ārzu kardan* “orzu qilmoq” va aynan shu ma'nodagi شکم چرب کردن *šekam čarb kardan* iborasi;

چاپلوسی کردن *čaplusi kardan* “xushomad qilmoq”, “tilyog'lamalik qilmoq”
سبزی پاک کردن *sabzi pāk kardan* (*so'zma-so'z tarjima* “ko'kat tozalamoq”);

به آسمان پرواز *fout kardan*, مردن *mordan* “o'lmoq” fe'llari o'rnida
be āsmān parvāz kardan (*so'zma-so'z tarjima* “osmonga uchmoq”),

لیبیک اجابت گفتن *labbeyk-e ejābat goftan* (*so'zma-so'z tarjima* “ijobat labbeykasini aytmoq”),
عمر دادن *omr dādan* .

Qiyoslang:

به سر کسی شیره مالیدن *be sar - e kasi šire mālidan* (*so'zma-so'z tarjima*) “kimningdir boshiga shira surtmoq”;

پاپوش دوختن *pāpuš duxtan* (*so'zma-so'z tarjima* “boshmoq tikmoq”-“oyoq kiyim tikmoq”) “aldamoq”, “ahmoq qilmoq”;

⁴⁹ Зульфигарова Ф.И. Идиоматические выражения в персидском языке: Автореф. дис...канд. филол.наук.- Баку, 1969. - С.17.

pisi پیسی به سر کسی درآوردن - “*xafa qilmoq*”, “*ranjitmoq*”, *ranjānidan* رنجانیدن
be sar kas-i dar-āvardan;

ābru آبرو به باد دادن - “*iz̄za qilmoq*”, “*uyaltirmoq*”, *bi ābru kardan* بی‌آبروکردن
be bād dādan;

taftār kardan - *tā kardan* تا کردن - رفتار کردن
“*chiqishmoq*”, “*murosa qilmoq*” – *āb-e kas-i tu-ye yek ju raftan* آب کسی توی یک جو رفتن –

u divāne šod “*u aql dan ozdi*” iborasi o‘rnida او دیوانه شد
aqlaš parsang mizanad “*bir qaynovi ichida*”, “*bir oz yetishmaydi*”, “*kirali-chiqali*” idiomatik iborasi qo‘llanishi mumkin:

اربابم لیبیک حقرا اجابت کرد عیالش را که... جزئی... داشت گرفتم

Arbābam labeyk-e haq-rā ejābat kard, ayāl-aš – rā ke ...joz-i dāšt...gereftam

[9:271]

“*Xo‘jayinim qazo qildi, nimalargadir ega xotiniga uylandim*”.

این مرد از همان زمره مخلوقیت که حقشان میگویند عقلش پرسنگ میزند

*In mard az hamān zomre-ye maxluqiyat ke haq-ešān miguyand aql-aš
parsang mizanad* [5:172]

“*Bu kishi esi kirali-chiqali deydiganlar toifasidan edi*”.

این جوان در نتیجه حساسیت فوق‌العاده دچار هوس گردیده است

*In javān ... dar natije-ye hassāsiyat-e fouqol’ āde dočār-e havas gardide
ast* [4:391]

“*Bu yigitcha o‘ta ta‘sirchanligidan aql dan ozdi*”.

به او حالی کردم که آب من و زنها توی یک جو نمیرود

Be u hāli kardam ke āb-e man va zan-hā tu-ye yek ju namiravad
[10:254]

“*Men unga ayollar bilan moshimiz pishmasligini uqtirdim...*”.

دیگر حنای داش اکل پیش کسی رنگ نداشت...

Digar henā-ye Dāš ākol piš-e kas-i rang nadāšt [6:259]

“*Endi Dosh Oko‘l e‘tibordan qolgan edi...*”.

2.1.7. Erkin fe'liy birikmalar bilan ifodalangan evfemizmlar

Evfemik vositalarning keyingi turi sifatida biror fe'lining yumshoq shakldagi sinonimi hisoblangan erkin fe'liy birikmalarning qo'llanilishini ko'rsatish mumkin.

Masalan:

فراموش کردن *farāmuš kardan* “unutmoq”, “esdan chiqarmoq” fe'li o'rnida

از یاد بردن *az yād bordan*;

فراموش شدن *farāmuš šodan* “unutilmoq” o'rnida از یاد رفتن *az yād raftan* “yoddan ko'tarilmoq”;

شنیدم *šenidam* “eshitdim” o'rnida به گوšم رسید *be gušam rasid* “qulog'imga chalindi”;

تولد شدن *tavallod šodan* “tug'ilmoq” o'rnida به دنیا آمدن *be donyā āmadan* “dunyoga kelmoq”;

مردن *mordan* “o'lmoq” o'rnida از دنیا رفتن *az donyā raftan* “dunyodan o'tmoq”;

دفن کردن *dafn kardan* “dafn qilmoq” o'rnida به خاک سپردن *be xāk sepordan* “tuproqqa qo'yimoq (topshirmoq)”;

خبر دادن *xabar dādan* “xabar bermoq” o'rnida استحضار رساندن *estehzār resāndan* e'tiboriga havola etmoq”;

تربیه کردن *tarbiya kardan* “tarbiyalamoq” o'rnida بزرگ کردن *bozorg kardan* “voyaga yetkazmoq” va h.

او... در دلجان به خاک سپرده شد

U dar Delijān be xāk seporde šod [6:84]

“U Delijonda dafn qilindi”.

...ما همه چیز را از یاد برده بودیم

Mā hame čiz rā az yād borde budim [3:77]

“...Biz barcha narsani esdan chiqargan edik”.

خبر جانگداز به گوšم رسید که گفتند که دختر دل دادهات به خانه شوهرش رفته بود

Xabar-e jāngodāz be gušam rasid ke doxtar-e deldāde –at... be xāne – ye šouharaš rafte bud [10:37]

“Qulog‘imga jon o‘rtovchi xabar chalindi, sevgan qizing ... erining uyiga ketibdi”.

بالاخره پا به فرار گذاشتیم جزء این چاره‌ای نداشتیم

Belāxare pā be farār gozāštīm, joz in čāre-i nadāštīm [9:259]

“Nihoyat qocha boshladik, boshqa choramiz ham yo‘q edi”.

... روی این زانوها بزرگشان کردم

...ru-ye in zānu-hā bozorg-ešān kardam [8:21]

“... shu tizzalar(im)da katta qilganman (qildim)”.

2.1.8. Fe’llar antonimini inkor shaklida berish orqali sinonimini hosil qilish

Evfemik vositalarning keng tarqalgan usullaridan fe’llar antonimini inkor shaklida berish orqali sinonimini hosil qilishdan iborat. Masalan:

doruq goftan “yolg‘on gapirmoq” - راست نگفتن *rāst nagoftan* “rost gapirmaslik”, “to‘g‘ri so‘zlamaslik”;

مريض بودن *mariz budan* “kasal bo‘lmoq” - سالم نبودن *sālem nabudan* “sog‘ bo‘lmaslik”;

کوربودن *kur budan* “ko‘r bo‘lmoq” - نابینا بودن *nābinā budan* “ko‘zi ojiz bo‘lmoq”;

تضعیف کردن *taz‘if kardan* “zaiflashtirmoq” - بی قوت کردن *biqovvat kardan* “quvvatsiz qilmoq”, “holdan toydirmoq”;

شك داشتن *šak dāštan* “shubha qilmoq” - باورنکردن *bāvar nakardan* “ishonmaslik”; بیدار کردن *bidār kardan* “uyg‘otmoq” - بیخواب کردن *bixāb kardan* “bedor qilmoq” va b.

دیگر هیچ چیز را باور نمیکنم و حتی در حقایق آشکار و روشن الان هم شك دارم

Digar hič čiz rā bāvar namikonam va hattā dar haqāyeq – e āškār va ravšan – alān šak dāram [7:82]

“Endi hech narsaga ishonmayman va hatto chin haqiqat, hozirgina (yaqindagina) bo‘lgan xatti-harakatlarga shubham bor”.

ارباب هیچکس را نداشت ، فاقد زن و فرزند بود ...

Arbāb hičkas rā nadāšt, fāqed – e zan-o- farzand bud... [8:16]

“Xo‘jayinning hech kimi yo‘q edi, xotini va farzandidan judo bo‘lgandi”.

2.2. Ismiy evfemizmlar

Fors tilida fe‘liy evfemizmlardan tashqari ot, olmosh so‘z turkumlarida ham evfemizmlar uchraydi. To‘plangan materiallar tahlili fors tilida ismiy evfemizmlar juda kam qismni tashkil etishini ko‘rsatdi.

2.2.1. Ot so‘z turkumidagi so‘zlar bilan ifodalangan evfemizmlar

a) Insonning tana a‘zolari bilan bog‘liq evfemizmlar

Bu guruhdagi evfemizmlarga birinchi navbatda insonning aytish uyat bo‘lgan a‘zolari va ular bilan bog‘liq evfemik vositalar kiradi.

Ko‘pgina tabulashtirilgan ob’ektlarni o‘z nomlari bilan atash u qadar qiyinchilik tug‘dirmasa-da, ba‘zan, xususan inson oshqozon faoliyati, uning natijalari bilan bog‘liq narsalarning nomlarini aytish, yozish noqulaydir. Odatda, tadqiqotchi bunday voqeliklarning nomini aytish yoki yozishdan o‘zini olib qochadi. Bu axloq-odob nuqtai nazaridan to‘g‘ri, albatta. Biroq lisoniy tahlil talabi masalasiga boshqacharoq yondoshishini taqozo qiladi. Chunki har qanday tushunchaning bosh ma‘nosi uning asl nomi bilan reallashadi. Real (uzual) ma‘noga evfemik ma‘noni aniqlashga asos bo‘ladi. Boshqacha aytganda, vulgar,

qo‘pol, “beparda” so‘z, ya’ni tabulashtirilgan tushuncha qarshisida yumshoq so‘z-
evfemik ma’no turadi. Bular zid (oppozisiya) qo‘yilib o‘rganilishi kerak (yaxshi
tushunchasi yomonga nisbatan belgilanganidek).

Demak, predmet yoki voqelik o‘z ifoda vositasi bilan nomlanishini fan taqozo
qiladi. Qolaversa, so‘z uyat tushunchasi nomini ifodalaganligi (bu tabiiy narsa)
uchun uni zarurat tug‘ilganda yozmaslik, “tildan quvg‘in qilish” noqonuniylikdir.
Aks holda tabulashtirilgan so‘z va iboralar asrlar o‘tib o‘z ifoda ob‘ektlaridan yoki
evfemik vositalaridan “begonalashib” yo‘qolib ketgan bo‘lardi⁵⁰.

b) Irim-sirim evfemizmlari

Yuqorida keltirilgan evfemizmlardan tashqari, L.S.Peysikovning
“Лексикология современного персидского языка” asarida irim-sirim, bid‘at va
qo‘rquv evfemizmlari qayd etiladi⁵¹. Bunday evfemizmlar “*qo‘rqinchli*” predmet
yoki harakat nomi uchun qo‘llanilgan (ya’ni, masalan, o‘zbek tilida “*chayon*” so‘zi
o‘rniga “*oti yo‘q*” ishlatilgani kabi). Qadimda ilon, chayon kabi zaharli
hasharotlarning nomini aytganda, ular paydo bo‘lib, odamlarga zarar yetkazadi deb
ishonilgan. Shu bilan birga yovvoyi hayvonlarga nisbatan ham evfemizmlar
ishlatilgan. Masalan: ayiqqa nisbatan “*kajpā*”, tulkiga nisbatan دزد دمدراز “*dozd-e*
domderāz”, bo‘riga nisbatan جاندار “*jāndār*” kabi evfemizmlar qo‘llangan.
Cho‘chqa ham ziyon yetkazadigan ham shariyatda harom qilinganligi sababli
eronliklar uchun tabulashtirilgan. Lekin uning aynan qaysi jihati uchun
tabulashtirilgani noma’lum. Chunki Afg‘onistonda uni “*jānvar –e bad*”(yomon
hayvon), Tojikistonda esa “*gusfand-e sefid*”(oq qo‘y) deya nomlashadi.

Irim-sirim evfemizmlariga yana e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 13 raqami ko‘pchilik
xalqlar orasida shum, yomon raqam hisoblanadi. Jumladan, eron xalqi orasida
ham bu raqam deyarli ishlatilmaydi. Masalan, Gilonda xususan Reshtda umuman
bu raqamni ishlatishmaydi ya’ni tillariga olishmaydi. Uning urniga o‘n ikki

⁵⁰ Омонтурдиев А.Ж. Эвфемик воситаларнинг функционал-услугий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди...дис. – Тошкент, 1977. – 70.Б.

⁵¹ Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. М.: Наука, 1975. –С.126,

raqamidan soʻng “*ziyāde*” soʻzini ishlatishadi. Sherozda boʻlsa bu raqam oʻrnida “*davoze va yek*” deya aytiladi.

v) Sakral maʼnodagi evfemizmlar

Asosan diniy omillar bilan bogʻliq gʻayritabiiy kuchlar tushunchasi bir guruh evfemizmlarning kelib chiqishiga sabab boʻlgan. Bunday evfemizmlarning paydo boʻlishida insonlarning emotsional holati, gʻayritabiiy kuchlardan qoʻrquv hissi va ular oldida ojizlik katta oʻrin egallagan. Qadimdan odamlar jin, dev, pari, zaharli hasharot va tabiiy ofat nomlarini tilga olishdan juda qoʻrqqanlar. Goʻyo bulardan biri tilga olinsa, ularning boshiga falokat yogʻiladi deb ishonganlar. Shu holatning qaysidir qismi hozirgi kungacha tilda saqlanib qolgan. Masalan, “xudo” soʻzi oʻrnida qator soʻzlarning ishlatilishini kuzatishimiz mumkin. *خدا Xodā* *الله Āllāh*, *خداوند Xodāvand*, *قبله حاجت Qeble-ye hājat*, *رحمان Rahmān*, *رحیم Rahim*, *افریدگار Āfaridegār*, *خداوند Xodāvand*, *خالق Xāleq*, *کریم Karim*, *هادی Hādi* va h.

اگر این مرد در ایران ما زندگی میکرد.. به این سن و سال نمی رسید سالها پیش لبیک حضرت حقرا

اجابت کرده بود

Agar in mard dar Irān-e mā zendegi mikard... be in senn-o sāl nemirasid sālḥā piš labbeyk-e Hazrat-e Haqrā ejābat karde bud [7:50]

“Agar bu kishi bizning Eronda boʻlganda ..bu yoshga yetmay oldinroq oʻtib ketgan boʻlardi”.

این مرد حسابی در این سن و سال که چانه اش بوی الرحمن میدهد

In mard hesābi dar in senn o sāl ke čāneaš bu-ye Ar-Rahmān midehad [7:56]

“Uning dahanidan Ar-Rahmon hidi kelmoqda (oʻlimi yaqin)”

g) Kasallik bilan bog‘liq evfemizmlar

Kasallikni ifodalovchi evfemizmlar ham o‘ziga xos xususiyatga egadir. Bunday evfemizmlar uzoq davrlardan buyon tilda mavjud. Chunki biror kasallikka chalinish qadimdan odamlarda qo‘rqinch hissini uyg‘otgan. Shuning uchun nutqda bu kasalliklarning nomini ochiq aytish o‘rniga evfemizmlar paydo bo‘lgan.

“*Qizamiq*” o‘rniga گل *gol*, “*saraton*” o‘rniga درد بيدوا *dard-e bidavā* evfemizmlari qo‘llanishi kuzatildi. Shu bilan birga eron xalqi orasida kasallik bilan bog‘liq irim-sirim evfemizmlari ham bor bo‘lib ular turli baxtsizlik va kasalliklarni ismlarini o‘zgartirgan holda bartaraf etishadi. Bu kabi irim-sirim evfemizmlarini tarixiy manbalarda ham uchratdik. Masalan, Shoh Sulaymon Safaviy hukmronligining ilk kunlarida betob bo‘lib boshi kasallikdan chiqmay qoladi. O‘sha paytlarda uning asl ismi “**Shoh Safi**” bo‘ladi. Munajjimlar uning ismi ta‘sirida bu kasallikka duchor bo‘lgani va ismini tezda o‘zgartirishi lozimligini aytishdi. Shundan so‘ng shoh o‘z nomini *Sulaymon* deya o‘zgartirdi va uni hamma boshqa inson deb tan olishlari uchun ikkinchi marotaba yangi inson sifatida unga toj kiydirishdi.

2.2.2. Kishilik olmoshlari bilan ifodalangan evfemizmlar

Ma‘lumki, eronliklar seriltifot xalq hisoblanadi. Ularda o‘zidan yoshi yoki mansabi kattalarga nisbatan hurmatni ifodalash juda kuchli. Yuqori uslubga oid deyarli har bir fe‘lning varianti bor. Shu qatorda olmoshlarning ham iltifot variantlari mavjud. Bu haqda M.S. Uzina “Fors tilida iltifot ma‘nosini bildiruvchi so‘zlar ichida olmoshlarning iltifot formasi muhim o‘rinni egallaydi”, deb ta‘kidlaydi⁵².

Bunday kishilik olmoshlariga asosan بنده *bande* “qul” (1-sh.), سرکار *sarkār* “xo‘jayin” (2-sh.) kabi otlar, arab tilidan o‘zlashgan sifatlardan حقير *haqir* “haqir”,

⁵² Bu haqda qarang. Узина М.С. О вежливых эквивалентов местоимений в современном персидском языке // Лексикология и грамматика восточных языков – М., 1976. – С.91-102.

احقار *ahqār* “haqir” (1-sh.), to‘ldiruvchi معضم الله *moazzamollāh* “hurmatli”, frazeologik birikmalardan اينجانب *injāneb* “bu taraf” (1-sh.), آنجانب *ānjāneb* “u taraf” (2-sh.), جناب عالی *janāb-e ‘āli* “janobi oliylari” (2-sh.), سرکار عالی *sarkār-e ‘āli* “hazrati oliylari” (2-sh.)larni kiritish mumkin.

Yuqorida ko‘rsatilgan so‘z va so‘z birikmalari iltifot ma’nosida o‘zining leksik ma’nosini yo‘qotib, yangi ma’no qabul qiladi. Ular predmet va ularning belgisini bildirish xususiyatini yo‘qotib, olmosh vazifasini bajaradi. Olmoshlarning iltifot shaklining paydo bo‘lishi tilning ijtimoiy funksiyasi bilan bog‘liq. Masalan, yuqori tabaqaga mansub odam o‘ziga nisbatan من *man* “men” deyishi mumkin, lekin past tabaqaga mansub odam esa yuqori tabaqa vakillari oldida 1-shaxsni ifodalovchi olmoshlarning iltifot shaklidan birini ishlatadi.

Olmoshlarning iltifot shakli nafaqat fors tili, balki boshqa tillarda ham, jumladan, o‘zbek tilida ham mavjud.

Ba’zi hollarda olmoshlarning iltifot shakli o‘rnida kishilik olmoshlari ishlatilish holatlari ham kuzatiladi. Lekin fors tilida bu hodisa nazariy va amaliy jihatdan to‘liq o‘rganilmagan va grammatikada to‘liq yoritilmagan. M.Uzina ta’kidlaganidek, faqat ما *mā* “biz” va شما *šomā* “siz” kishilik olmoshlari hurmat yuzasidan من *man* “men” va تو *to* “sen” olmoshlari o‘rniga ishlatilishini ta’kidlaydi⁵³.

V.S.Rastorgueva va Yu.A.Rubinchiklar⁵⁴ ایشان *išān* “ular” olmoshining 3-shaxs birlik shaklida hurmat ma’nosida ishlatilishini ta’kidlashgan. Yu.Rubinchik bunga qo‘shimcha ravishda fors tilida iltifot shakllarining paydo bo‘lish sabablariga ham to‘xtalib o‘tgan.

Eronshunos olimlarning ko‘pchiligi (J.Lazar, A.K.S.Lambton, L.Jirkov) iltifot shakli bilan almashtirilgan olmosh bilan fe’l har doim shaxs va sonda moslashishini ta’kidlashgan. Kuzatishlar bu qoidaga rioya qilinmagan holatlarni ham ko‘rsatdi:

⁵³ Ko‘rsatilgan avtoreferat.

⁵⁴ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – Москва: Восточная литература, 2001. - С.55.

اعلیٰ حضرت شاہنشاہ ایران اینجانب بہ طرز بسیار مختصری مایل است موقع ہیأت نمایندگی
عراق را تشریح کند

A'lāhazrat šāhanšāh-e Irān injāneb be tarz-e besyār moxtasari māyel ast mouqe-ye hey'at-e namāyandegi-ye Arāq-rā tašrih konad [8:45]

“Eron shohanshoi a’lo hazratlari, men Iroq delegatsiyasi pozisiyasi haqida qisqacha to‘xtalmoqchiman”.

سرکار کی باشد؟

Sarkār ki bāšad?

“Siz kimsiz”?[4:54]

Keltirilgan misollardan ko‘rinib turganidek, اینجانب *injāneb* 1-shaxs birlik, سرکار *sarkār* 2-shaxs ko‘plikni ifodalasa-da, kesim 3-shaxsda turibdi.

Yuqorida ta’kidlanganidek من “man” kishilik olmoshi o‘rnida qator sinonimlar ishlatilishi mumkin. Bu sinonimlardan tashqari o‘zidan kattalar oldida men deyish o‘rniga birinchi shaxs ko‘plik varianti ishlatilish holatlari ham mavjud. Masalan:

آقا ما ما تقسیر نداریم.

Āqā ... mā... mā...taqsir nadārim [4:255]

“Og‘o biz...bizning aybimiz yo‘q”.

Agar jumlaning matndan alohida tahlil qilsak, albatta, birinchi shaxs ko‘plik shaklining hech qanday alohida xususiyati ko‘rinmaydi. Lekin kontekstga murojaat qilsak, bu jumlada birinchi shaxs birlik haqida gap ketayotganining guvohi bo‘lamiz.

Ismiy evfemizmlar bo‘yicha to‘plangan materiallar soni juda kam bo‘lganligi sababli ismiy evfemizmlarning faqat yuqorida taqdim etilgan tahliliga amalga oshirildi. Misollar kamligi sababli ismiy evfemizmlarning funksional tahlilini amalga oshirish imkoni bo‘lmadi.

2.3. Disfemizm va ular ifodalovchi tushunchalar

Disfemizmga O.S. Axmanovanning “Словарь лингвистических терминов” lug‘atida⁵⁵, A.Shomaqsudovning “O‘zbek tili stilistikasi”⁵⁶ kitobida qisqacha izoh berilgan. Disfemizm haqidagi mavjud qarashlarni M.M.Mirtojiev “O‘zbek tili semasiologiyasi” monografiyasida keng tahlil qilgan va ular orasidagi nozik jihatlarni ko‘rsatgan⁵⁷.

Disfemizmning bu qadar kam o‘rganilganligi, uning faqat evfemizm xususida so‘z borganda yo‘l-yo‘lakay tilga olinib ketilganligi nutqiy me‘yor, nutqiy madaniyat, lisoniy mezonlar nuqtai nazaridan uni lingvistik o‘rganishga ehtiyoj sezilmaganligi bilan belgilanadi.

D.Lourens⁵⁸ va u bilan hamfikir tadqiqotchilar tomonidan so‘z erkinligi va ochiqlik yoqlanishi, uning foydali tomonlari sanab o‘tiladi, masalan, noxush tushuncha qanchalik berkitilsa, shunchalik qiziqarli bo‘lishi, yomonlikni ta‘qiqlagan sayin unga bo‘lgan e‘tibor kuchayishi va samarasi teskari bo‘lishi mumkinligi ta‘kidlanadi. Jumladan, A.N.Rezanova⁵⁹ ingliz tili disfemizmlarini o‘rganib, uning qadimiy jarayon ekanligini uqtiradi. Ishda disfemizm tarixi, badiiy nutqdagi vazifalari, leksik-semantik tahlili beriladi, tasnifi amalga oshiriladi va “disfemizm – denotatni salbiy baholovchi (u yoki bu darajada ma’lum bir bo‘yoq vositasida kamsituvchi, salbiylashtiruvchi) lisoniy ifoda” ekanligi aytiladi⁶⁰. Shuningdek, T.V.Boyko⁶¹, T.S.Bushuyeva⁶²lar disfemizmni evfemizm bilan yonma-yon tadqiq etadilar.

⁵⁵ Axmanova O.S. Словарь лингвистических терминов. – М.: Сов. Энциклопедия, 1969. – С.137.

⁵⁶ Шомақсудов А, Расулов И, Қўнғуров Р, Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1983. – Б.248.

⁵⁷ Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б.129.

⁵⁸ Лоуренс Д. Порнография и непристойности. – М.: Азбуковник, 2003.

⁵⁹ Резанова А.Н. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и прагматические функции: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008. – 20 с.

⁶⁰ Ko‘rsatilgan avtoreferat.

⁶¹ Бойко Т.В. Эвфемия и дисфемия в газетном тексте: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2005.

⁶² Бушуева Т.С. Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке: Автореф. дисс... канд.филол. наук. – Смоленск, 2005.

Muayyan millatning yashash tarzi, etnik taraqqiyoti, tarixiy davri bilan bog‘liq ravishda til va nutqda shakllangan birliklar tadqiqiga bag‘ishlangan ishlarda ham ma’lum ma’noda disfemizm uchun alohida bo‘limlar ajratilib, uning mohiyati, semantikasi, nutqiy xususiyati tavsiflangan. Masalan, O.V.Potapova⁶³ belorus, rus va polyak xalqi tilining XIX asrdagi etnik qolipini o‘rganar ekan, “etnonominatsiya muhitida leksemalarning uslubiy farqlanishi muhim rol o‘ynaydi. Aynan leksemaga “muayyan bir etnik jamoaga mansublik” konnotatsiyasini berish muayyan lug‘aviy-ma’noviy guruhda sinonimlar hosil bo‘lishiga olib keladi. Bunda ikki asosiy uslub qo‘llaniladi: evfemizatsiya va disfemizatsiya”⁶⁴ degan fikrni bildiradi. I.P.Pasechnikova⁶⁵ hozirgi nemis tilida urush va tinchlik tushunchalarining mohiyati xususidagi tadqiqot ishida ham evfemizm va disfemizmlarga to‘xtaladi: “Urush va tinchlik qutbiy fenomenlarining baholanishi sub’ektning *o‘ziniki – begona* arxetipik sotsiomadaniy ziddiyatini idrok etishi bilan shartlangan. Funktsional planda urush va tinchlik muayyan vaziyat bahosining ambivalentligi sodir bo‘lish ehtimoli ham mavjud. Urush va tinchlik dixotomiyasining salbiyligiga nisbatan baho variantlashuvi “sotsial yovuzlik”ni “yaxshilash” yoki “yomonlash”ni ta’minlovchi evfemizatsiya va disfemizatsiya shaklida yuz berishi mumkin”⁶⁶.

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligi dastlab adabiy me’yorlarni ishlab chiqish va omma ongiga singdirish (formal o‘zbek tilshunosligi), so‘ngra o‘zbek tili lisoniy birliklari va ularning imkoniyatlarini aniqlash (nazariy tilshunoslik) vazifasi bilan band bo‘lganligi tufayli nutqiy xarakterga ega bo‘lgan disfemizmlarni o‘rganish kun tartibidan o‘rin olmagan edi. Bugungi kunda fanimiz til va jamiyat, lisonning nutqiy voqelanishi, lisonidan amaliy foydalanish ko‘lamini kengaytirish muammolari bilan shug‘ullana boshlaganligi bois sof milliy va nutqiy xarakterga

⁶³ Потанова О.В. Языковые этнические стереотипы и их представление в белорусской, русской и польской лексикографии XIX века: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Минск, 2005.

⁶⁴ Ko‘rsatilgan avtoreferat.

⁶⁵ Пасечникова И.П. Концептуализация войны и мира в современном немецком языке: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – Тамбов, 2009.

⁶⁶ Ko‘rsatilgan asar.

ega bo'lgan disfemizmlarni o'rganish ham kunning dolzarb masalasiga aylanmoqda.

Disfemizmlar tasnifi tilshunoslik sohasida ayrim ishlardagina amalga oshirilgan. Masalan, ingliz tilida disfemizm leksik-semantik jihatdan quyidagicha tasnif qilinadi: o'lim, kasallik, jismoniy va ma'naviy nuqsonlarni bildirib keluvchi disfemizmlar; keng doiradagi jinoiy guruhlar bilan bog'liq disfemizmlar; inson nuqsonlari bilan bog'liq disfemizmlar; millatga mansub disfemik nomlar; xudo, iblis (shayton), cherkov marosimlari bilan bog'liq disfemizmlar⁶⁷.

Disfemizm – denotat bahosiga munosabatning salbiy tomonga ketishi bilan bog'liq pragmatik hodisa. Disfemizm evfemizm bilan munosabatdosh bo'lganligi sababli ularning tasnifida ham evfemizmlar tasnifidagi ayrim belgilar tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida fors tilida evfemizmlarga nisbatan disfemizmlar kam ekanligi aniqlandi va shu jihatdan uning semantik guruhlarini doirasi ham asosan so'kish, haqorat, qarg'ish, kinoya, masxara tushunchalarini ifodalovchi birliklar bilan chegaralandi. Shulardan kelib chiqib, fors tilida ishlatiluvchi disfemizmlarni ikki guruhga ajratib o'rgandik: 1) kinoya anglatuvchi disfemizmlar, 2) qarg'ish anglatuvchi disfemizmlar.

⁶⁷ Резанова А.Н. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и прагматические функции: Автореф. дисс..канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008. – 20 с.

2.3.1. Kinoya anglatuvchi disfemizmlar

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, fors tilida disfemizmlar evfemizmlarga nisbatan kam qismni tashkil etadi. To'plangan materiallar tahlili natijasi disfemizmlar ichida masxara, kinoya anglatuvchi disfemizmlar asosiy qismni tashkil etishini ko'rsatdi.

Bir guruh disfemizmlarni مثل *mesl-e* izofiy old ko'makchili birikmalar bilan ifodalangan disfemizmlar guruhiga kiritdik. Bunda anglashilayotgan qo'pol ma'no biror salbiy narsaga o'xshatilish orqali ifoda etiladi.

مثل مرده شو *mesl-e mordešu* “yuvg'uchiga o'xshagan” yoki uyatsiz, insofsiz odamlarga nisbatan ishlatiladi.

مثل مرده متحرک *mesl-e morde-ye motaharrek* “tirik o'likdek” -qo'lidan hech narsa kelmaydigan, zaif odamlarga nisbatan ishlatiladi.

مثل گاو پیشانی سفید *mesl-e gāv-e pišāni-ye sefid* “peshanasi qashqa”-salbiy ma'noda mashhurlarga nisbatan ishlatiladi.

مثل گاو *mesl-e gāv* “molga o'xshagan”-ahmoq odamga nisbatan ishlatiladi.

مثل سگ زوزه کشیدن *mesl-e sag zuze kešidan* “itdek uvillamoq”-qattiq og'riqdan baqirmoq ma'nosida ishlatiladi.

دزدیرا که دستگیر کردند آنقدر زدند که مثل سگ زوزه می کشید

Dozdi-rā ke dastgir kardand ānqadr zadand ke mesl-e sag zuze mikešid.[7:43]

“Qo'lga olingan o'g'rini shunday kaltaklashganki, og'riqdan dod derdi”.

Bunday birikmalardan tashqari fors tilida quyida havola etiladigan disfemizmlar ham ishlatilishi aniqlandi.

گورت را گم کن (گورتان را گم کنید) *gurat-rā gom kon (guretān-rā gom konid)*

“Yo'qol (yo'qoling)”, “Tuyog'ingni (tuyog'ingizni) shiqillat(ing)”.

هر چه زودتر بلند شو گورت را گم کن!

Har če zudtar boland šo gurat-rā gom kon! [7:23]

“Qani tezroq turib tuyog'ingni shiqillat-chi!”

فردا صبح تا پلیس خبر نکرده ام گورتونو گم کنین

Fardā sobh tā polis xabar nakardeam ... guretunu gom konin [8:12]

“Ertaga ertalabdan polisiyaga xabar bermasimdan, tuyog‘ingizni shiqillating’”.

کدام گور (رفته) بودی؟

Kodām gur (rafte) budi? [3:98]

“Qay go‘rda eding?”

از گوساله گوساله تر است

Az gusāle gusāletar ast [7:12]

“Buzoqdan ham badtar”-ahmoqlarga nisbatan ishlatiladi.

kolāhnamadi “qishloqi”.

haft kafan pusānde ast “o‘lib ketgan”.

kafš-e kasirā joft kardan “biror kishining oyoq kiyimini juftlab qo‘yish”-biror mehmon ketavermagach, mezbanning o‘zi unga ketishni taklif qilish holatini ifodalashda ishlatiladi.

این مهمان از بس مزاحم بود ناگزیر کفشهایش را جفت کردم و عذرش را خواستم

In mehmān az bass-e mozāhem bud nāgozir kafshāyaš-rā joft kardam va ozraš-rā xāstam [10:74]

“Mehmonim xiraligidan undan uzr so‘rab eshikni ko‘rsatib yuborishga majbur bo‘ldim”.

کش رفتن *keš raftan* “o‘marmoq”

من شروع کردم به گاز زدن یکی از سیبها بابام گفت: از کجا کش رفتی؟

Man šoru‘ kardam be gāz zadan yeki az sibhā, bābām goft: Az kojā keš rafti? [4:90]

“Endi olmalardan birini tishlagan edim, otam dedi: “Qayerdan o‘marib kelding?”

کیه ی مرگ گذاشتن

kappe-ye marg gozāstan

“o‘likdek uxlab qolish”.

ربابه لحاف پاره پوره را آخر اطاق پهن کرد و از پیرمرد پرسید: تا کجا کیه مرگتو میزاری؟

Rabābe lehāf-e pāre pure-i-rā āxer-e otāq pahn kard va az pirmard porsid:
“*To kojā kappe-ye margatu mizāri?*” [8:12]

“Raboba uy burchagiga yirtiq adyolni solib choldan so‘radi: “Qayerda uxlaysan?”

کسی را قیمة و قاورمه کردن // کسی را قیمة قیمة کردن

kasi-rā qiyme qiyme kardan // kasi-rā qiyme va qavorme kardan “*qiyma-qiyma qilmoq*”-kimnidir yomon urmoq ma’nosida ishlatiladi.

از بس او را کتک زدند قیمة قیمة اش کردند

Az bass-e u-rā kotak zadand qiyme qiymaš kardand. [9:13]

“Shunchalik urishganidan dabdalasini chiqarib yuborishdi”.

“*juftakni rostlash*” *qāčāq šodan* قاچاق شدن:

صبح تا شب سگدو میزنم. صبح به اداره ظهر یواشکی قاچاق میشم و دو سه ساعتی میرم شرکت

بعد دو باره برمیگردم اداره

Sobh tā šab sagdou mizanam. Sobh be edāre, zohr yavāšaki qāčāq mišam va do se sā’ati miram šerkat, ba’d dobāre barmigardam edāre [7:90]

“Ertalabdan kechgacha itdek yuguraman. Ertalab idoraga, tushda sekin juftakni rostlab, ikki-uch soat shirkatga boraman, keyin yana idoraga qaytaman”.

“*tomi ketgan*” *aqlaš pārsang mibarad* عقلش پارسنگ میبرد

تو نخ هر کس بروی یک تخته اش کم است و عقلش پارسنگ میبرد

Tu nax-e har kas beravi yek taxte-aš kam ast va aqlaš pārsang mibarad
[6:98]

“Hammasiga e’tibor beradigan bo’lsang, hammasi bir qaynovi ichida, hammasining tomi ketgan”.

savādaš nam kešide ast “savodi namiqib qolgan” savodsiz, o‘qimagan, madaniyatsiz odamlarga nisbatan ishlatiladi.

“o‘lmoq” *saqat šodan* سقط شدن:

فلان گور به گوری چه خوب شد سقط شد و از سرش راحت شدیم

Folān gur be guri če xub šod saqat šod va az saraš rāhat šodim [10:34]

“Bu qurib ketgurning o‘lgani yaxshi bo‘ldi, undan qutuldik”.

کله سحر *kalle-ye sahar* “kallai sahar, so‘fi azon etmasdan”. Juda vaqtli ma’nosida, ya’ni biror ish vaqtli qilinishi boshqa kimgadir yoqmaganda ishlatiladi.

سر شب مثل مرغ به لانه میرفتند و کله سحر از خواب بیدار میشدند

Sar-e šab mesl-e mory be lāne miraftand va kalle-ye sahar az xāb bidār mišodand [2:87]

“Ular qushga o‘xshab barvaqt yotib, so‘fi azon etmasdan turib olishardi”.

سایه کسی را به تیر زدن *sāye-ye kasirā be tir zadan* “kimningdir soyasini nishonga olmoq”-kimnidir juda yomon ko‘rishga nisbatan ishlatiladi.

زهر مار کردن *zahr-e mār kardan*

1) “emoq” (qo‘pol ma’noda):

خدا میداند ظهر از دست این مردم بی چشم و رو مجالی بشود یک لقمه نان زهر مار بکند یا

نه....

Xodā midānad zohr az dast-e in mardom-e biçēšm-o- ru majāli bešavad yek loqme nān zahr-e mār bekonad yā na...[6:74]

“Xudo biladi, bu insofsizlarning dastidan tushlik qila oladimi yoki yo‘qmi”...

2) “bo‘kib yemoq”:

یادم آمد که شب پیش زیادی زهر مار کرده بودم

Yādam omad ke šab-e piš ziyādi zahr-e mār karde budam [2:12]

“Kechqurun bo‘kkunimcha ovqat yeganim esimga tushdi”.

زر زدن *zer zadan, zer zer kardan* “valdiramoq”-bekorchi gaplarni gapirish ma’nosida ishlatiladi.

چرا این همه زر میزنی؟ *Čerā inhame zer mizani?* [5:78]

“Nima deb valdirayapsan”?

زبان به دهان نمیبرد *zabān be dahān nemibarad* “labi labiga tegmay gapirmoq”

زبان ریز حرف زدن // *zabān rixtan* // زبان ریختن *zabānriz harf zadan* “tinmay gapirmoq”

مرتباً و پشت سر هم زبان میریزد

Morattaban va pošt-e sar-e ham zabān mirizad [1:84]

“U tinmay gapiradi, bir gapga tushib ketsa to‘xtatib bo‘lmaydi”.

rude-ye bozorg rude-ye kuček-rā mixorad روده بزرگ روده کوچک را می خورد
“katta ichak kichigini yemoqda” (juda qorni och ma’nosida)

2.3.2. Qarg‘ish anglatuvchi disfemizmlar

Disfemizmlarning ikkinchi guruhi qarg‘ish anglatuvchi disfemizmlar bo‘lib, faqat og‘zaki nutqda ishlatiladi va qo‘llanish doirasi ham chegaralangan. To‘plangan materiallar asosida quyidagi qarg‘ish anglatuvchi disfemizmlar aniqlandi:

mordešur bebarat (bebordaš) // mordešuyat (šuyas) bebarad. *مordešur bebarat (bebordaš) // mordešuyat (šuyas) bebarad.*
So‘zma-so‘z tarjimasi: “seni (uni) yuvg‘uchi olib ketsin”. O‘zbek tiliga aynan qarg‘ish variantida tarjima qiladigan bo‘lsak, “qurib ketgur”, “yer yutsin”, “jin ursin” ma’nosini bildiradi.

مordešur to va āvāzet ru bebare *مordešur to va āvāzet ru bebare*

[5:375]

“Qo‘shig‘ing bilan birga seni yer yutsin”.

اصلاً مرده شور این طبیعت مرا ببرد

Aslan mordešur in tabiat-e marā bebarad [7:12]

“Bu fe‘l-atvorimni jin ursin”.

kappe-ye marg begozār/ kappe-ye margaš-rā begozār. *کپه مرگ بگذار- کپه مرگشرا بگذار*
aynan tarjimasi: “ilohim uyqungdan (uyqusidan) uyg‘onmagin (uyg‘onmasin)”. Bu disfemizm o‘zbek tilida “iloyo o‘lib ket”, “yotgan joyingdan turma”ga to‘g‘ri keladi.

چرا این اندازه شیطانى میکنى برو کپه مرگ بگذار

Čerā in andāze šeytāni mikoni, boro kappe-ye marg begozār [7:29]

“Namuncha quturding, iloyim uxlab uyqungdan uyg‘onmagin”.

الاهى آتش به ریشه عمرتون بگیره

Elāhi ātaš be riše-ye omretun begire [7:56]

Aynan tarjimasi “ilohim hayotingiz ildizini o‘t olsin”. O‘zbek tilidagi “o‘lib ket” qarg‘ishiga to‘g‘ri keladi.

زهر مار کن کن (کند) Zahr-e mār kon (konad). O‘zbek tilidagi “zaharingga yeb ol”, “tiqilib o‘l (o‘lsin)”ga to‘g‘ri keladi.

زهر مار کن به دقیقه مرا راحت بگذار

Zahr-e mār kon ye daқиqe marā rāhat begozār [8:90]

“Ma, tiqilib o‘l, faqat mani tinch qo‘y”.

آنجا برو که بابام رفت Ānjā boro ke bābām raft. Aynan tarjimasi: “Otam ketgan joyga yo‘qol”. Bu disfemizm “Qayerga?” savoliga yoki “Men ketdim” deganda ishlatiladi, ya’ni “Qayerga?” desa, “Go‘rga” deb javob bergandek.

(تا بدم) بمیر و بدم (tā bedam) bemir o bedam. Aynan tarjimasi “o‘lib pufla”. Bu disfemizm ish buyurilganda turli bahonalar bilan ishdan qochadiganlarga nisbatan ishlatiladi. Uning tarixi quyidagicha: “Bir qo‘li gul ustaning dangasa shogirdi bo‘lgan ekan. U doimo: “O‘tirib puflasam maylimi? Yotib puflasam maylimi? deb so‘rayverarkan. Usta jahli chiqib: O‘lib pufla, degan ekan”.

Yuqoridagi qarg‘ish anglatuvchi disfemizmlardan tashqari biror kishini so‘kish ma’nosida ishlatiladigan disfemizmlar ham mavjud. Ular quyidagilar:

گوربگور شده gurbegur šode “qarg‘ish olgan”, “qurib ketgur”

کفتار پیر keftār-e pir “qari chiyabo‘ri”

کفر ابلیس kofr-e eblis “iblis”.

Misollar tahlili natijasida qarg‘ish anglatuvchi disfemizm ichida katta qismni birovga o‘lim tilash ma’nosini bildiruvchi disfemizmlar tashkil etishi ma’lum bo‘ldi.

Yuqorida keltirilgan disfemizmlar o‘rnini bosuvchi evfemizmlar mavjud. Bularga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

قاپیدن qāpidan “tutmoq”, “yulib olmoq” fe’li o‘rnida *گرفتن gereftan* “olmoq”;

لنبونیدن *lambunidan* “kavshamoq” fe’li o‘rnida خوردن *xordan* “tanovul qilmoq”, “ovqatlanmoq”;

تمرگیدن *tamargidan* fe’li o‘rnida نشستن *nešastan* “o‘tirmoq”;

ترکمون زدن *terekmun zadan* fe’li o‘rnida زاییدن *zāyidan* “tug‘moq”, “ko‘zi yorimoq”;

خرکردن “eshak qilmoq” fe’li o‘rnida فریب دادن *ferib dādan* “aldamoq”;

خرکی بار کردن *xaraki bār kardan* fe’li o‘rnida سرمست شدن *sarmast šodan* “mast bo‘lmoq” va b.

سر نه ماه و نه روز و نه ساعت و نه دقیقه خدیجه خانم زاید

Sar- e noh māh -o- noh ruz-o- noh sāat-o- noh daqiqe Xadije xānom zāyid
[7:44]

“To‘qqiz oy, to‘qqiz kun, to‘qqiz soat, to‘qqiz daqiqadan so‘ng Xadicha xonimning ko‘zi yoridi”.

سر نه ماه خدیجه یک پسر دیگر ترکمون زد

Sar - e noh māh Xadije yek pesar-e digar terekmun zad [7:11]

“To‘qqiz oy deganda Xadicha yana bir o‘g‘il tug‘ib berdi”.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, disfemizatsiya til birliklarining pragmatik ma’nosi bo‘lib, evfemizatsiyaga zid turadi. Buning sabablaridan biri – disfemizatsiya hodisasining ba’zan ijtimoiy, ba’zan esa individual stereotiplar bilan bog‘lanishi. Disfemizatsiya leksemalarning nutqiy differentsiatsiyasini ham keltirib chiqaradi. Bu esa, o‘z navbatida, nutqiy ma’nodoshlik qatorining boyishini ham ta’minlaydi. Matn, bog‘liq qurshov va nutqiy vaziyat – ma’nodoshlik qatori muvaqqat a’zolarining shu qatordagi o‘rnini belgilovchi ijtimoiy omillarning mustahkamlovchi vositasi. Badiiy nutqdagi disfemizatsiyani individual usul (priyom) sifatida baholash mumkin. Bu individuallik evfemizmdagi individuallikka nisbatan birmuncha ustuvorligi bilan xarakterlanadi. “Pragmatika

nuqtai nazaridan tegishli til vositasining evfemikmi yoki kakofemikligi faqat kuzatuvchi (tinglovchi)ga bog‘liq bo‘ladi”. Masalan, ko‘pgina yevropa tillarida uchraydigan *fransuz kasalligi* (sifilis) vositasiga boshqa til vakillari tomonidan evfemizm sifatida munosabatda bo‘linsa, ayrim etnik muhitda u disfemizm sifatida qaralishi mumkin. Zero, birliklardagi disfemik ma’no faqat muayyan makon va zamon bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi va shu asosda idrok etiladi.

III BOB. FORS TILIDA EVFEMIK VA DISFEMIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL USLUBLARDA QO`LLANILISHI

3.1. Fe'liy evfemizmlarning funksional uslublarda qo'llanishi

V.G. Belinskiyning “Shunday so‘z qo‘llash kerakki, shu o‘rinda uni almashtiradigan boshqa so‘z topilmasin”⁶⁸ degan fikri evfemik nutqning etik-estetik talab normasiga ham aloqador .

Tilshunoslikning ko‘pgina sohasi, xususan sinonimika evfemiologiya bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, uning asosiy taraqqiyotida manba bo‘lib xizmat qiladi.

Evfemik nutqning etik-estetik talab normasi evfemik sinonimlarning mana shu rang-barang va tunganmas boyliklaridan muayyan makon va zamonda ma‘lum maqsadga muvofiq maksimal darajada foydalanish san‘atidir⁶⁹.

Ta‘kidlash kerakki, evfemik vositalar faqat ochiq aytish maqsadga muvofiq bo‘lmagan tushunchalarni ijobiylashtirish, nafosatlashtirish uchungina xizmat qilmaydi. Chunki mantiqan salbiy tushunchalar evfemalashtirilganda ham, mohiyati saqlanib qoladi. Lekin bu jarayon baribir evfema qo‘llashning estetik talab normasi tomonidan boshqariladi.

“Tilda bitta tushunchani aynan ifodalovchi, bir biriga teng keladigan ikkita o‘xshash so‘z bo‘lmaydi”⁷⁰, degan fikr – evfemik sinonimlarni befarq qo‘llash mumkin emasligi, ularning o‘ziga xos nozik uslubiy bo‘yog‘i, qo‘llanish normasi borligini yana bir bor ta‘kidlaydi.

Evfema qo‘llashning etik-estetik talab normasi tilshunoslikning psixolingvistik, sotsial yoki etnolingvistik, universal lingvistik omillariga amal qilishni ham taqozo qiladi. Chunki biror tildagi tabulashtirish hodisasi, xususiyligidan qat’iy nazar barcha xalq uchun mushtarak bo‘lishi mumkin.

⁶⁸ Белинский В.Г. Избранные сочинения. В 3-х томах. Т. II. –Москва, 1948. - С.694.

⁶⁹ Маматов А.Э. Проблемы лексико-фразеологической нормы в современном узбекском литературном языке: Автороф. дис...доктора филол. наук. –Т., 1991. – 20 с.

⁷⁰ Белинский В.Г. Избранные сочинения. В 3-х томах. Т. II. –Москва, 1948..С.84.

G'.Salomov yaponlarning odobi o'z suhbatdoshiga to'g'ridan to'g'ri rad javobini berishga yo'l qo'ymasligi, suhbat davomida ular "yo'q", "iloji yo'q", "bilmayman" degan so'zlarni sira qo'llamasliklarini, bular kishini ranjituvchi so'zlar hisoblanganligidan rad ma'nosi boshqa ko'chirma vositalar orqali ifodalanishini, hatto ikkinchi piyola choy uzatilganda, "boshqa ichmayman" deyish o'rniga "juda serob bo'ldim" qabilidagi ibora qo'llashlari; yoki biror tanish tokiolik taklifiga javob qaytarishdan oldin "xotinim bilan maslahatlashib olay" desa, "yo'q" so'zini aytishdan bosh tortish ekanligini yozganki⁷¹, bu aslida nutq odobi talabi bilan "yo'q" tushunchasini evfemalashtirishdir.

O'zbek tilida ham bu hodisa yo'q emas: *ovqat yeng, choy iching* deyilganda, "yo'q", "emayman", "ichmayman" deyish o'rniga "rahmat", "edim", "ichdim" kabi yumshatilgan vositalarni qo'llash ham evfemalashtirilgan nutqiy odob hisoblanadi.

Xullas, ko'p hollarda (ko'proq so'zlashuvda) inkor yoki tasdig'i ishlatilishi lozim bo'lgan odatdagi vositalar ma'lum vaziyat nutqiy odob normasi talabi bilan evfemalashtiriladi.

G'.Salomov tarjima muammolari bilan bog'liq tadqiqotida: "Nutq jarayoni – bu faqat bayon qilish va xabar yetkazishgina emas, balkim ayni vaqtda va muqarrar bayon qilishdan bosh tortish, sukut va jimjitlik ham demakdir. Til dastavval sukut saqlashdan iborat. Nutqda ko'p narsani ifoda qilishdan bosh tortish qobiliyatiga ega bo'lmagan mavjudot gapirish qobiliyatiga ham ega bo'lmas edi", – degan fikrini keltiradi⁷², bu evfema qo'llashning etik-estetik talab normasi, noverbal (ekstralingvistik) vositalarga ham rioya qilishni taqozo etadi.

Manbalarni ko'zdan kechirish umumslubiyatlar (stilistika)ni o'rganishning nazariy masalalari hozirgacha uzil-kesil hal etilmaganligidan darak beradiki, bu evfemiyaning uslubiy qimmatini ochib berishni qiyinlashtiradi, albatta. Masalan, uslubiyatni ham lingvistik, ham adabiyotshunoslik sohalariga ajratish – birinchisi tilshunoslarning, ikkinchisi adabiyotshunoslarning ishi deb qaralishi kabilar.

⁷¹ Саломов Г. Таржима назариясига кириш.-Т.: Ўқитувчи, 1978.- Б.58.

⁷² Ко'rsatilgan asar.- В.43.

Ba'zi olimlar mana shu holat to'g'ri emasligini salkam bundan yarim asr oldin payqaganlar. Adabiyotshunos asar tilini sitemali tahlil qilish o'rnida ko'pincha obrazli tasviriy vositalarni yo'l-yo'lakay o'rganish, yozuvchi g'oyasining targ'ibotiga berilib ketish an'anasi lingvistik sohani – uslubiyatni kambag'allashtirib, rangsizlantirib qo'yishini, aslida tilshunos va adabiyotshunosning tekshirish ob'ekti mohiyati bilan bitta (nutqiy vositalarning uslubiy-funksional qimmatiga baho berish), tekshirish metodi ham bitta (semantik-uslubiy analiz) ekanligini, bizningcha to'g'ri ta'kidlaganlar⁷³.

Demak, uslubiyatni o'rganuvchi va o'rgatuvchi shaxs filologlar (ham tilshunos, ham adabiyotshunos) bo'lishi kerak. Zotan uslubiyat ilmi tilni adabiyotdan, adabiyotni tildan ajratib o'rganmaydi.

Uslubiyatga doir qo'llanilayotgan terminologiya ham shu sohani tadqiq qilishda ma'lum qiyinchilik tug'diradi. Ba'zi tekshiruvchilar “*til uslubi*”, “*nutq uslubi*” terminlarini farqlab qo'llasalar⁷⁴, boshqalari (har ikki termin ostida funksional uslub tushunilishini nazarda tutib) ularni farqsiz yoki sinonim termin sifatida qo'llaydilar⁷⁵.

Yoki og'zaki nutq, yozma nutq, so'zlashuv nutqi, kitobiy uslub, so'zlashuv uslubi, yozma kitobiy nutq, og'zaki so'zlashuv uslubi kabi terminologik noaniqliklarga duch kelamiz⁷⁶. Bunda: 1) uslub bilan nutq so'zi farqsiz qo'llanilgan; 2) nutq so'zi yozma yoki og'zaki so'zi bilan bog'lanadi, biroq yozma yoki og'zaki uslub bo'lmaydi; 3) yozma-kitobiy, og'zaki-so'zlashuv qo'shaloq terminlarning bir komponenti ortiqcha.

⁷³ Эфимов А.И. Стилистика художественной речи. - М.: МГУ, 1961.- С.26-32; Галперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка. - М.: Лит.на иностр. языков, 1958. - С.7.

⁷⁴ Виноградов В.В. Итоги обсуждения вопросов стилистики // Вопросы языкознания. - № 1. -1953. – С.71,82-83.

⁷⁵ Адмони В.Г, Сильман Т.И. Отбор языковых средств и вопросы стиля // Вопросы языкознания. – 1954. - № 4. – С.97.

⁷⁶ Розенталь Д.Е. Практическая стилистика русского языка. - М.: Высшая школа, 1965.- С.11., Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиёв Э. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1992.- Б. 73-77.

Hozirgi zamon fors tilida asosiy ikki shakl: ogʻzaki va yozma til faoliyat yuritadi. Bularning orasidagi farq til vositalarini tanlash va ularni ishlatish va til meyorlariga rioya qilish bilan belgilanadi.

Adabiy tilning yozma shakli (زبان نوشتاری) badiiy asarlarda, ilmiy va oʻquv adabiyotida, publisistikada, gazeta va jurnallarda va rasmiy-ish hujjatlarida namoyon boʻladi.

Adabiy tilning ogʻzaki shakli (زبان گفتاری) birinchi navbatda gʻayri rasmiy suhbatlarda qoʻllaniladi. Ogʻzaki nutqning asosiy xususiyati- uning norasmiy, muayyan til muhitiga xos soʻz va iboralarni ishlatishidir.

3.1.1. Ogʻzaki nutq uslubida evfemizmlarning qoʻllanishi

Ogʻzaki nutq badiiy adabiyotdagi dialoglarda, xalq ogʻzaki ijodida, dramatik asarlarda kinofilmlarda keng qoʻllaniladi.

Yozma til va ogʻzaki nutq orasida oʻtib boʻlmas chegara yoʻq. Odatda kishilar maʼruzalarda, tantanali nutq paytida, dars jarayonida, radio-televidenie orqali chiqishlarda yozma tilga yaʼni meʼyorni saqlashga harakat qiladilar.

Ogʻzaki nutqda koʻpincha muayyan muhit orasida rasm boʻlgan, yozma adabiy tilda uchramaydigan soʻz va iboralar ishlatiladi. Masalan: ننه (nane) - oyi, داداش (dādāš) - aka, آبجی (ābji)- opa, کوچولو (kučulu) - kichkintoy, مکتب بچه (maktab bačče) - maktab bolasi, قول چماق (qol čomāq) - bilagi yogʻon (mushtumzoʻr), نون (nun), آو (āw)- suv, وا کردن (wā kardan) - ochmoq, جیم شدن (jim šodan) - qochib qolmoq, کش رفتن (keš raftan)- oʻgʻirlamoq va hokazo.

Ogʻzaki nutqning maʼlum aholi qatlamlari orasida qoʻllanadigan shaklini "xalq tili" deb yuritiladi.

Ogʻzaki nutqning muayyan ijtimoiy guruhlari, muayyan qatlamlari orasida qoʻllaniladigan shakli jargon زبان متبذل (zabān-e mobtazal) زبان خودمانی (zabān-e xudmāni) deb yuritiladi. Ogʻzaki nutqning shakllari mamlakatning turli mintaqalarida turlicha koʻrinishda boʻladi. Bunday koʻrinishi lahjalar deb ataladi. Masalan fors tilida Tehron lahjasi, Mashhad (Xuroson) lahjasi va boshqa lahjalar ham fonetik, ham leksik va grammatik jihatdan bir-biridan farq qiladi. Baʼzilar

lahjalar adabiy tildan umuman yiroq bo‘ladi. Eroniy tillarga kiruvchi bunday lahjalar ko‘pchilikni tashkil qiladi.

Mazkur guruh evfemizmlariga kinoya, kesatiq ma’nosidagi quyidagi fe’liy birikmalarni kiritish mumkin:

بلبول شدن *bolbol šodan* “ko‘p gapirmoq” o‘rnida بلبولی کردن *bolboli kardan* “mahmadonalik qilmoq”;

دلخوش کردن *delxuš kardan* o‘rnida شکم خود را صابون کردن *šekam-e xod-rā sābun kardan* “ko‘nglini xushlamoq” (so‘zma-so‘z tarjima “qornini sovunlab yuvmoq”).

این بدبختها شکمها را مدتی است صابون زده‌اند که کباب غاز بخورند

In badbaxt-hā ... šekam-hā rā moddat-i ast sābun zade-yand ke kabāb-e qāz bexorand [8:56]

“Bu badbaxtlar... anchadan buyon qovurilgan g‘oz go‘shini yeyman deb ko‘nglini xushlaganlar”.

نظامی‌ها فرار نمیکنند.

موقع‌اش رسید زدید به چاک.

- *Nezāmi-hā farār namikonand.*

- *Mouqe’-yaš rasid zadiid be čāk* [1:498]

“Harbiylar qochmaydilar”.

“Vaqti kelsa, juftakni rostlaysiz”.

Shuni ta’kidlash kerakki, evfemizmlar sof va kontekstual evfemizmlarga ajratiladi. Sof evfemizmlarning vazifasi bevosita ularning o‘z ma’nolaridan kelib chiqadi. Kontekstual (matniy) evfemizmlar fikr ifodasini boyitish maqsadida biror janr yoki nutqiy matn (mazmun jihatidan tugallikka ega bo‘lgan, o‘z tarkibidagi so‘z yoki iboralarning ma’nolarini belgilashga imkon beradigan nutq parchasi.

Bunday nutq parchasi tarkibidagi soʻzlar (iboralar) biri boshqasi uchun qurshov vazifasini bajaradi)ga xos boʻladi⁹.

3.1.2. Meʼyoriy nutq uslubida evfemizmlarning qoʻllanishi

Evfemik nutqning shakllanishida jamiyat aʼzolarining, xususan ziyoli nutqi ularning maʼnaviy saviyasi, axloq-odobi, didi va zavqi, ongliligi, fikrlash darajasi, kasbi, yoshi, sotsial holati kabilar muhim rol oʻynaydi⁷⁷. Evfema qoʻllash maʼlum darajada subʼektiv xarakterga egaligini eʼtirof etish kerak. Aks holda nutqiy, individual, okkazisional evfemalar haqida gapirilmagan boʻlar edi. Evfema mana shu tomoni, yaʼni til faktiga aylanmaganligi bilan ham (lisoniy evfemadan mustasno) barqaror birlik, jumladan, frazemadan farqlanadi. Toʻgʻri, lisoniy evfema maqomiga ega boʻlgan evfema individuallik, okkazionallik xususiyatini yoʻqotadi, yozuvchi yoki soʻzlovchining “kashfiyoti” boʻlmay qoladi. Lekin bu lisoniy hodisalar nutq uchun aynan tayyorlangan degan gap emas. Chunki barqaror birliklarning ham haqiqiy hayoti nutq ichidadir. B.Yoʻldoshev frazeologik birliklarni yangi, individual avtor variantlarida qoʻllash jarayonida uning barcha xususiyatlari yanada boʻrttiribroq koʻrinishini, qoʻshimcha maʼnolar bilan boyishini taʼkidlagan⁷⁸. Bu bevosita evfemalarga ham taalluqlidir.

زاييدان *zāyidan* “tugʻmoq” feʼli oʻrnida به دنيا آوردن *be donyā āvardan* “dunyoga keltirmoq”;

زاييدان *zāyidan* “tugʻilmoq” feʼli oʻrnida به دنيا آمدن *be donyā āmadan* “dunyoga kelmoq”;

⁹ Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дис... канд. филол. наук. - Т., 1963. - С.18

⁷⁷ Рагимзаде Н.Г. Об эвфемистических выражениях азербайджанского языка// Известия АН Азерб.ССР.- Баку, 1966. - №4. - С.13-16; Рагимзаде Н.Г. Идиоматические выражения в азербайджанском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Баку, 1987.- С. 21.

⁷⁸ Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик birlikларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Фил. фан доктори ... дисс. автореф. - Тошкент, 1993. - Б. 20.

بچه‌دار شدن *ābestan šodan* “homilador bo‘lmoq” fe’li o‘rnida
baččedār šodan “og‘ir oyoqli bo‘lmoq”, “bo‘yida bo‘lmoq” va b.

دوچه دارید.

دختر هفده‌ساله و پسر دوساله. پانزده سال اختلاف زیاد است. نیست؟

بچه‌دار نمیشدم.

- *Do bačče dārid. Doxtar-e hefdah sāle, pesar-e do sāle. Pānzdah sāl extelāf ziyād ast, nist?* [3:36]

- *Baččedār namišodam.*

- Ikkita farzandingiz bor. O‘n yetti yashar qizingiz va ikki yashar o‘g‘lingiz. O‘n besh yil farq – ko‘p. Shunday emasmi?

- Bo‘yimda bo‘lmadi.

Voqelikni evfemalashtirish – yumshatilish darajasi har xil bo‘lib, uni ko‘p hollarda sub’ektiv munosabat boshqaradi. Bunda so‘zlovchi yoki yozuvchining intellektual qobiliyati, estetik didi, dunyoqarashi, qaysi ijtimoiy qatlam yoki sinf vakili ekanligi, yoshi, jinsi, kasbi, tarbiyalanganlik darajasi muhim rol o‘ynaydi. Masalan, kishilar o‘rtasidagi munosabatlarda ba’zi narsalar va xatti-harakatlarning nomlari nafaqat noqulay yoki qo‘pol, balki mutlaqo nomaqbul sanaladi. Shu sababli bunday so‘zlar evfemizmlar bilan almashtiriladi.

Misollar:

rošve dādan, رشوه دادن *tatmi’ kardan* تطمیع کردن “pora bermoq” fe’llari o‘rnida *ābestan kardan* “rozi qilmoq, og‘zini yog‘lab qo‘ymoq”;

badnām kardan “badnom qilmoq” fe’li o‘rnida بدننام کردن

dāman-e kas-i rā ālude kardan “kimningdir etagini bulg‘amoq”. کسی را آلوده کرد

اما شب عروسی به راز هولناک پی‌برد. سغری دختر نبود. پسر حاج حسن دامن او را آلوده کرد

*Ammā šab-e arusi be rāz-e houlnak pei bord. Suqrā doxtar nabud...
Pesar-e Hāj Hasan dāman-e u rā ālude kard [1:809]*

“Biroq nikoh kechasi dahshatli sirdan ogoh bo‘ldi. Sug‘ro qiz emasdi... Hoji Hasanning o‘g‘li uning nomusini bulg‘agandi”.

3.1.3. Rasmiy nutq uslubida evfemizmlarning qo‘llanishi

Rasmiy nutq uslubi - bu turli rasmiy hujjatlar, xalqaro bitimlar, diplomatik munosabatlar, huquqiy ish qog‘ozlari, hisobotlar va shunga o‘xshash hujjatlar tilidir. Shuning uchun bu tilda turli lug‘aviy qoliplar, qotib qolgan birikmalar, jumlar qo‘llaniladi. Masalan, *مشار اليه* (*mašārun ilayh*)- yuqorida eslatilgan; *فوق* (*fouqul zekr*) - yuqorida zikr etilgan; *نامبرده* (*nāmborde*) - nomi tilga olingan; *حضور جناب عالی* (*hozur-e janāb-e a`li*)- janobi oliylariga; *جلالت مآب* (*jalolat ma`āb*) - olampanoh; *بدین وسیله* (*bed-in vasile*) - shu orqali va hokazo iboralar ishlatiladi.

Fors tilida hurmatli yoki oliy martabali shaxs haqida gap ketganda yoxud biror kishiga ehtirom ko‘rsatilsa, odatiy kundalik harakatlarni ifodalash uchun qo‘llanadigan *آمدن āmadan* “kelmoq”; *رفتن raftan* “bormoq, ketmoq”; *خوردن xordan* “yemoq”; *دیدن didan* “ko‘rmoq”; *گفتن goftan* “gapirmoq, aytmoq”; *نوشتن neveštan* “yozmoq”; *دادن dādan* “bermoq” kabi fe‘llar ularning hurmat-ehtirom ma’nosidagi ekvivalentlariga almashtiriladi: *تشریف آوردن tašrif āvardan* “tashrif buyurmoq”; *تشریف بردن tašrif bordan* “jo‘nab ketmoq”; *میل کردن meyl kardan* “totib ko‘rmoq”; *ملاحظه فرمودن molāheze farmudan*, *نگریستن negaristan* “ko‘rib chiqmoq”; *نگاشتن negāštan* “qayd etmoq”; *سپردن sepordan* “taqdim etmoq”; *ملفت شدن moltafet šodan* “e’tibor bermoq” (*fahmidan* o‘rniga).

Misollar:

حضرت آقا تهران تشریف میبرید؟

-*Hazrat āqā, Tehrān tašrif mibarid?* [2:45]

- Janob, Tehronga tashrif buyurasizmi?

گفت اگر میدانستم شما امشب اینجا تشریف میاوردید هرگز به مهمانی نمیرفتم

Goft: Agar midānestam šomā emšab injā tašrif miyāvardid hargez be mehmāni namiraftam [10:62]

U dedi: “Sizning bu yerga tashrif buyurishingizni bilganimda edi, hech qachon mehmonga bormagan bo‘lardim”

وتن او بدون دفاع به دست هوا و هوس موج سپرده شده بود

Va tan-e u bedun-e defā be dast- e havā va havas-e mouj seporde šode bud [10:31]

“Va uning tanasi himoyasiz to‘lqin ixtiyoriga taslim bo‘lgandi”.

بعد پرسید فرمودید قایقهای بزرگی دو طرف کشتی وجود دارد؟

Ba‘d porsid: “Farmudid qāyeyhā-ye bozorg-i do taraf-e kešti vojud dārad?” [7:93]

“So‘ng so‘radi: Kemaning ikki tomonida katta qayiqlar bor dedingizmi?”

3.1.4. Badiiy nutq uslubida evfemizmlarning qo‘llanishi

Badiiy uslub - badiiy uslubning o‘ziga xos xususiyati - uning kommunikativ vazifasidan tashqari estetik mohiyatidir.

Badiiy uslubda majoz, tashbih, kinoya kabi badiiy san’atlar ko‘p ishlatilgani bois so‘zlarning ma’nosi kengayib ko‘p ma’no kasb qilishi, turli sinonimik birliklarning ishlatilishi, ya’ni so‘z va iboralar ishlatishga intilish kuzatiladi.

Badiiy uslubdagi proza, she’r va dramatik asarlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Badiiy asar (ayniqsa prozada) turli funktsional uslublar, undan tashqari lahjalar va jargonlardan foydalaniladi va bularning hammasi asarning estetik maqsadlariga xizmat qiladi.

Tabulashtirilgan nutqiy ob’ektlarni tasvirlash uning evfemik vositalarini aniqlashga imkon beradi, ya’ni bir tabu tushuncha bir va undan ortiq evfemik

sinonimlarning shakllanishiga sabab bo‘ladi va sinonimiyaning boyib borishi uchun tuganmas manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, keyingi vaqtlarda ham o‘zbek tili sinonimlari va uning uslubiy xususiyatlari, nutqiy qimmatga doir ko‘pgina ilmiy to‘plamlar, maqolalar, izohli lug‘atlar maydonga kelgan⁷⁹.

Shunga qaramay, sinonimiyaning o‘rganish xususidan uning til sathiga munosabati shu bilan bog‘liq tasnifi masalasi hali o‘z yechimini topmagan. Boshqacha aytganda, sinonimlar til yaruslari materiallariga (leksik, morfologik, sintaktik birliklar) asoslanib o‘rganilgan va shu nomlar bilan turlarga ajratilgan. Bu jarayon biror tushuncha yoki voqelik (denotat)ning tasviri bilan bog‘liq bo‘lgan majoziy ma’noli (konnotat) sinonimlarning leksik lug‘atlardan tashqarida qolishiga sabab bo‘lgan. Mana shu masala ayrim tilshunoslarni, jumladan, Hakimjon Shamsuddinov e’tiborini jalb etgan. Muallif: 1) sinonimiya hodisasi intralingvistik tarzda o‘rganilganligi, ekstralingvistik amallarga yetarli e’tibor berilmaganligi; 2) mazkur masala nomlash bilan bog‘liq o‘z tahlilini topmaganligi, masalan, *yangi so‘zining yaraqlagan, moyi arilmagan, ohori to‘kilmagan, chillasi chiqmagan, tasha tegmagan, siyohi qurib bitmagan* kabi qatorlari leksik sinonimlar lug‘atiga kiritilmaganligi, zotan bu hodisalar funksional-semantik birlik bo‘lganligidan, ularni sinonimlar lug‘atining bir turi sifatida ajratish va funksional-semantik sinonimlar deb nomlash lozimligini bizningcha to‘g‘ri taklif qilgan. Shuningdek, funksional semantik sinonimlar, asosan nutqiy jarayon mahsuli ekanligini bu vazifada so‘zlar, juft so‘zlar, takroriy so‘z, uyushiq bo‘laklar, o‘xshatishlar, sodda gap, qo‘shma gaplar qo‘llanishiga doir misollar keltiradi⁸⁰.

⁷⁹ Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1974. - Б.308; Рустамов Х. Сўз қўллаш эстетикасига доир баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1975. – №5. - Б.54; Холёров Х. Нутқ маданияти масалаларига оид баъзи фикрлар// Нутқ маданияти масалалари. – Тошкент, 1993. - Б.135; Бердалиев А. Нутқнинг баъзи нисоний ва коммуникатив асослари ҳақида // Нутқ маданияти масалалари. – Тошкент, 1993. - Б.12-16; Чориев Б, Ҳазраткулов А. Сўз танлаш маҳорати // Нутқ маданияти масалалари. – Тошкент, 1993. - Б.42-45; Нафасов Т. Жой номларининг терс луғати ва ўзбек нутқ маданияти // Нутқ маданияти масалалари. - Тошкент, 1993.- Б.18-20; Эсонов. Ж. Адабиёт дарсларида нутқ маданияти// Нутқ маданияти масалалари. – Тошкент, 1993. – Б.37-39.

⁸⁰ Шамсуддинов. Х. Сўзларнинг функционал семантик синонимлари// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1995. – №1.– Б.65-69.

Darhaqiqat, funksional-semantik sinonimlar, – deydi muallif, – bosh tushunchani (denotantni) qayta nomlab (*ajoyib* o‘rnida *qimmat* kabi), uni ekspressiv ifoda vositalari bilan boyitishni, ma’lum ma’noda leksik sinonimlar ustiga qatlamlangan sinonimiya sifatida baholanishi kerakligini ham uqtirgan⁸¹.

Demak, evfemik sinonimlar ham tilning muayyan sathida “yashamagan”ligi, funksional-semantik metod asosida ish ko‘rganligi uchun semantik-funksional sinonimiya kategoriyasiga kiradi.

Evfemik sinonimlarning shakllanishi xarakteri yoki umuman nutqiy qimmati bir xil emas. Ular ko‘p hollarda denotat (tabu) tushunchaning musbat, ba’zan esa ham musbat, ham manfiy konnotatlari (qutb)dan hosil bo‘ladi. Bunda sub’ektning voqelikka bo‘lgan munosabati asos bo‘ladi.

Barcha tasviriy vositalar singari, evfemalar ham nutqda ochiq aytilishi lozim bo‘lmagan voqeliklarni hazil, mazax, piching, kesatiq, qochiriq, ishora (tagma’no), shikoyat, hasrat, achinish, nafrat kabi semalar orqali ifodalash uchun xizmat qiladi. Bunday evfemizmlarning aksariyat qismi jonli so‘zlashuv nutqida yaratiladi va so‘zlashuv uslubiga xos. Shu sababli ular asosan badiiy asarlarda personajlar, ularning voqea-hodisaga munosabatini tavsiflash uchun ishlatiladi.

Evfemik matn nutqda o‘zining real mazmuni – denotati bilan emas, muayyan nutq talabi bilan ko‘chim (badiiy ifodalilikni oshirish uchun ko‘chma ma’noda qo‘llangan nutq birligi; ramz bilan qo‘llangan so‘z, ibora) asosida shakllangan, sub’ektiv, modal munosabat ifodalagan ma’nolari bilan namoyon bo‘ladi. Mana shu jarayon evfemik nutqning obrazlilikini ta’minlaydi. Quyida hurmat-ehtirom hamda qo‘pol ma’noli uslubiy bo‘yoqqa ega fe’llar keltirilmoqda:

در نامه بعدی مختصری از بیوگرافی خودتان را مرقوم بفرمائید

Dar nāme-ye ba’ di moxtasar-i az biyogrāfi-ye xod - etān rā marqum befarmāyid [5:28]

⁸¹ Ko‘rsatilgan asar. – B.67-69.

(benevesid) o‘rniga *befarmāyid* so‘zi ishlatilgan.

“Keyingi xatingizda o‘z tarjimai holingizni qisqacha yozing”.

عرض کردم خیر میروم شاهرود

Arz kardam: “Xeir, miravam Šāhrud” [2:47]

Dedim: “Yo‘q, Shohrudga ketyapman”.

ببخشید حضرت آقا فرمودید تهران تشریف نمیبرید

Bebaxšid Hazrat āqā, farmudid Tehrān tašrif namibarid [2:47]

“Kechirasiz, janob, Tehronga tashrif buyurmaydilar mi?”

یادش افتاد که پای میز خطابه‌با چه ولعی لغات را ازدهنش می‌قاپیدند

Yād- aš oftād ke pā-ye miz-e xetābe bā če vala ‘i loqāt rā az dahan-aš miqāpidand [6:49]

“Minbar oldida ishtiyoq bilan uning so‘zlarini ilib olayotganlari yodiga tushdi”.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, fe‘liiy evfemizmlarning xususiyatlari va ma‘nolari xilma-xilligi, nima maqsadda qo‘llanishiga ko‘ra turli qiymatga ega bo‘lsalar-da, ular bir muhim vazifani bajaradi, ya‘ni nutqning boyishi uchun xizmat qiladi, uning jonli, ifodali, yumshoq, yoqimli bo‘lishiga, etik-estetik talab normasi tomonidan boshqarilishiga yordam beradi.

XULOSA

1. Eronshunoslikda evfemik va disfemik ma'noni vositalarni o'rganish dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yilmagan. Bugungi kunda nutqiy strukturani ilmiy tadqiq qilish muammosi doirasida mazkur vositalarni ham tadqiq qilish dolzarb masaladir.

2. Lisoniy hodisalarni ilmiy o'rganish zamon bilan hamqadam rivojlanadi. Shunga muvofiq ravishda, har bir davrda o'rganish ob'ektining yangidan-yangi qirralari namoyon bo'ladi. Evfemik birliklarning mohiyati asosan tabu hodisasi bilan bog'lab o'rganilmasdan, ularga nafaqat qo'llanishi ijtimoiy taqiqlangan til birliklari o'rnida ishlatiluvchi vositalar sifatida, balki uslubiy bo'yoq, nutqiy bezamlilik, fikrni nozik bayon etish, qolaversa, sharqona madaniyatga xos hurmat maqsadida qo'llanuvchi, so'zlovchining manipulyativ taktikasini ta'minlovchi kabi vositalar sifatida ham qaralmog'i lozim.

3. Evfema va tabu tushunchalari uzviydir. Evfema dastlab diniy, keyinchalik dunyoviy fikrlash, masalan, axloq-odob normalari, muomala odobi talabi asosida shakllangan. Evfema qo'llash uzoq tarixga ega bo'lsa-da, eng kam o'rganilgan. Uning qo'llanish doirasi, sababi, o'rganish ob'ekti tor tushunilgan, unga aytilishi man etilgan predmetlar nomini yashiruvchi, til egalarini har xil xavflardan, baxtsizliklardan saqlovchi "*xaloskor*" vosita deb qaralgan.

4. Faktlar hozirgi fors nutqining evfemik qatlami tilning o'zi kabi tarixiy-evolyutsion jarayonini kechiruvchi soha - uslubshunoslikning tarkibiy qismi sifatida baholash: tasviriy ob'ektini aniqlash, semantik, uslubiy-funksional

tasniflash, uslubshunoslik va uning vazifaviy turlariga munosabatini aniqlash kabilarga imkon beradi.

5. Evfema metaforik, metonimik, sinekdoxaviy, funksiyadoshlik ko‘chimlar asosida shakllangan.

6. Evfema ma’no va shakl jihatdan nomutanosib (asimmetrik) hodisa, majoziy ma’no ifodalaganligidan, uni tilning biron sathida o‘rganib bo‘lmaydi.

7. Evfemik vositalar evfemik sinonimiyani hosil qiladi. Evfemik sinonimlar inson tafakkurining tasviriy vositalar “*kashf etish*” faoliyatidir.

8. Evfemik vositalar sinonimiyaning shakllanish sababini, boyish manbaini ko‘rsatishdan tashqari, semantik-funksional lug‘at tuzish, ularning tematik, izohli turlarini yaratishga imkon beradi.

9. Evfemik nutq asosan badiiy, publisistik, so‘zlashuv nutqining tarkibiy qismi bo‘lib, masalaning o‘rganilishi nutqning vazifaviy turlarini xususiy planda yoritishga yo‘l ochadi.

10. Fors tilida ismiy va fe’liy evfemizmlarning quyidagi semantik guruhlarini ajratildi: o‘lim bilan bog‘liq, axloq bilan bog‘liq, kambag‘allik bilan bog‘liq, yolg‘onchilik bilan bog‘liq, tana tuzilishi bilan bog‘liq, yomon odatlar bilan bog‘liq, qallob va ayyorlar bilan bog‘liq va qizg‘anchilikni bildiruvchi evfemizmlar.

11. Fors tilida disfemizmlarning mavzu doirasi evfemizmlarga nisbatan ancha tor va u so‘kish, haqorat, qarg‘ish, kinoya, masxara ifodalovchi birliklar guruhlaridan iborat.

12. Fors tilida disfemik birliklar sirasida kontekstual ma’nodoshlik, zid ma’nolilik holatlari e’tiborga molik.

13. Fors tilida disfemik birliklar ma’noviy ko‘lami jihatidan monosemantik va polisemantik birliklarga bo‘linadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

I.A.Karimov asarlari:

- 1.1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Т.: Ўзбекистон, 1996. -236 б.
- 1.2. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2. – Т.: Ўзбекистон, 1996. -380 б.
- 1.3. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Т.5. – Т.: Ўзбекистон, 1997. - 412 б.
- 1.4. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т.8. – Т.: Ўзбекистон, 2000. - 528 б.
- 1.5. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Т.9. – Т.: Ўзбекистон, 2001. - 432 б.
- 1.6. Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т.: Ўзбекистон, 2003. - 320 б.
- 1.7. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ қилишдир. – Т.: Ўзбекистон, 2005. -134 б.
- 1.8. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Т.: Ўзбекистон, 2006. - 439 б.
- 1.9. Каримов. И.А. Инсон унинг ҳуқуқлари ва эркинликлари олий қадрият. Т.14. – Т.: Ўзбекистон, 2006. - 278 б.
- 1.10. Каримов. И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. - 176 б.
- 1.11. Каримов И. А. Энг асосий мезон – ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. – Т.: Ўзбекистон, 2009. -24 б.

II. Asosiy adabiyotlar:

O`zbek tilidagi adabiyotlar:

- 2.12. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Т.: Фан, 1983. – 88 б.
- 2.13. Маҳмудов Н., Мадалиев А., Маҳкамов Н., Аминов М. Ўзбек тилида иш юритиш. – Тошкент, 1990. – 224 б.
- 2.14. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. –Т.: Ўқитувчи, 1966. – 268 б.
- 2.15. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Т.: Фан, 1990. –175б.
- 2.16. Mirtojiev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – 127 b.
- 2.17. Нурматов А., Маҳмудов Н, Солихўжаева С., Аҳмедов А. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси / А.Ҳожиев таҳрири остида. – Тошкент: Фан,1992. – 296 б.
- 2.18. Омонтурдиев Ж., Омонтурдиев А. Сўз қўллаш санъати. – Термиз: Жайхун, 1994. – 60 б.
- 2.19. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. – Т.: Фан, 1966. – 263 б.
- 2.20. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Т.: Фан, 1966. – 384 б.
- 2.21. Саломов Ғ. Таржима назариясига кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – 220 б.
- 2.22. Содиков А., Абдуазизов А., Ирисқулов М. Тилшуносликка кириш. –Т.: Ўқитувчи, 1981. – 266 б.
- 2.23. Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1983. – 248 б.
- 2.24. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Э. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 160 б.
- 2.25. Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – Toshkent, 2009. -53 б.

Rus tilidagi adabiyotlar:

- 2.26. Босчаева Н.Ц. Контекстуальная эвфемия в современном английском языке. – Л.: Наука, Ленинградское отд., 1989. -130 с.
- 2.27. Будагов Р.А. История слов и история общества. – М.: Просвещение, 1971. – 270 с.
- 2.28. Будагов Р.А. Введение в науку о языке. – М.: Индрик, 2003. - 141 с.
- 2.29. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: АН СССР, 1963. – 93 с.
- 2.30. Галперин И.Р. Очерки по стилистике английского языка – М.: Лит. на иностр. языков, 1958. – 72 с.
- 2.31. Джорджанели К.К. Эвфемизмы и слова-табу. – Тбилиси: Тбилис. ун-т, 1977. - 133 с.
- 2.32. Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – М.: МГУ, 1961. – 488 с.
- 2.33. Кацев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке. – Л.: Наука, 1977. - 65 с.
- 2.34. Лоуренс Д. Порнография и непристойности. – М.: Азбуковник, 2003. - 189 с.
- 2.35. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. – М.: Наука, 1975. -150 с.
- 2.36. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М.: РАН, 2005.-200 с.
- 2.37. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Издательская фирма “Восточная литература” РАН, 2001. - 601 с.
- 2.38. Самойлович А.Н. Запретные слова в языках казах-киргизской замужней женщины. – СПб: Рус. вост. отд. общество, 1915. – 192 с.

Fors tilidagi adabiyotlar:

- 2.39 جلال آل احمد. دید و بازدید. – تهران، ۱۳۷۸ .
- 2.40 مهین توللی. ویولون شکسته. – تهران؛ ۱۳۷۶ .
- 2.41 نازی صفوی. دالان بهشت. – تهران، ۱۳۷۸ .
- 2.42 رنجبرگل محمدی. میثاق با خورشید. // زن روز. – ژوئن ۱، ۲۰۰۲، № ۱۸۴۹.
- 2.43 صادق هدایت. سه قطره خون. – تهران، ۱۳۶۶.
- 2.44 سهیلا فرجامفر (یفلت). هنوز هم دیر نیست // زن روز. – // ۲۵ مه، ۲۰۰۲، № ۱۸۴۸.
- 2.45 فریده مصلا. عشق مسافر // زن روز. – ۲۰ آوریل، ۲۰۰۲، № ۱۸۴۳.
- 2.46 هوشنگ مرادی کرمانی. قصه های مجید. (کتاب سوم). تهران، ۱۳۵۸. ص.

۴۱۲-۲۹۸

III. Ilmiy jurnallardagi maqolalar:

O`zbek tilidagi maqolalar:

- 3.47. Абдуллаев Ф. Ўзбек тили лексикасининг баъзи бир масалаларига доир: Ўз ФА Тил ва адабиёт институти асарлари. – Т.: Фан, 1949. – Б. 25-35.
- 3.48. Абдуллаев А. Риторик сўроқ гаплар эмоционал-экспрессив фикр ифодалаш воситаси сифатида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1974.– №4. – Б. 47-51.
- 3.49. Абдурасулов Е. Нутқ жараёнида сўз маъносини кучайтириш усул ва воситалари // Нутқ маданияти масалалари. – Тошкент, 1993. – Б.118-121.
- 3.50. Абдурахмонов И. Семантик тортилиш, ўзбек тилининг лексик-семантик хусусиятлари: ТошДПИ Илмий асарлар тўплами. –Тошкент, 1988. – Б.77-82.
- 3.51. Абдурахмонов Ғ. Ҳозирги замон ўзбек тилининг адабий усуллари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1992. – №5-6. – Б.28-36.
- 3.52. Аликулов Т. Яна маъно кўчиш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1974. – № 1. – Б.74-77.

- 3.53. Бегматов Э. А. Нутқ маданияти мезонлари// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1975. – Б. 6-9.
- 3.54. Бердалиев А. Нутқнинг баъзи лисоний ва коммуникатив асослари ҳақида // Нутқ маданияти масалалари. –Тошкент, 1993. – Б.12-16.
- 3.55. Валиханов О. Тасвирий ҳарфлар// Гулистон. – Тошкент, 1972. – № 5. – Б.19-22.
- 3.56. Исматуллаев Н. Эвфемизмларнинг луғат составини ва сўз маъноларини бойитишдаги аҳамияти: ТошДШИ Илмий асарлар тўплами. 2–китоб, 1964. – Б.3-12.
- 3.57. Миртожиев М. Кўчма маъно ҳосил қилувчи ҳодисалар классификациясига доир// Ўзбек филологияси масалалари: ТошДУ Илмий асарлар тўплами. –Т., 1970. – Б.98-105.
- 3.58. Мукаррамов М. Кўчимларнинг ўзаро муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1976. – № 5. – Б.52-53.
- 3.59. Неъматов Ҳ.Ф. Сўз, унинг тил ва нутқдаги ўрни// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1988. – № 6. – Б.38-41.
- 3.60. Нурмонов А. Тасдиқ ва инкорнинг паралингвистик воситалар ёрдамида ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент,1979. – №.1. – Б.132-137.
- 3.61. Рустамов Х. Сўз қўллаш эстетикасига доир баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1975. – №5. – Б.54-60.
- 3.62. Тоғаева Д. Инс-жинслар ҳақида. Ўзбек оғзаки ҳикояларининг образлар системаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1991. – № 6. – Б.44-47.
- 3.63. Усмонов С. Ҳозирги замон ўзбек тилида омоним ва синоним: ТошДПИ Илмий асарлар тўплами. – Тошкент, 1959. – Б.25-34.
- 3.64. Чориев Б., Ҳазратқулов А. Сўз танлаш маҳорати // Нутқ маданияти масалалари. – Тошкент, 1993. – Б.42- 45.

- 3.65. Шамсиддинов Ҳ. Сўзларнинг эвфемик функционал-семантик синонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1997. – № 6. – Б. 22-28.
- Rus tilidagi maqolalar:
- 3.66. Аджиев А.М. Кумакское свадебно-обрядовие загадки. «Киритмелер» // Советская тюркология. – Баку, 1985. - № 4. – С.23-27.
- 3.67. Адмони В.Г, Силман Т.И. Отбор языковых средств и вопросы стиля // Вопросы языкознания. – 1954. - № 4. – С.94–97.
- 3.68. Баскаков Н.А. Пережитки табу и тотемизма в языках народов Алтая // Советская тюркология. – Баку, 1974. – № 2. –С.3-9.
- 3.69. Бакина М.А. Окказиональные слова мотивированные прилагательными поэзией // Слова в русской советской поэзии. – М., 1975. - С.245-253.
- 3.70. Баскаков Н.А. Принципы выбора признаков для наименования гор у алтайцев // Исследования по восточной филологии. – М., 1974. – С.105-112.
- 3.71. Ванштейн С.П. Личные именно-термины родства и прозвища у тувинцев // Ономастика. – М.: Наука, 1969. –С.159-162.
- 3.72. Виноградов В.В. Итоги обсуждения вопросов стилистики // Вопросы языкознания. – № 1. – 1953. – С. 82-83.
- 3.73. Дарбакова В.П. Омонимия. МНР // Ономастика. – М.: Наука, 1969. – С. 199-205.
- 3.74. Ергазиев Н.И. Взаимосвязи прозвищ, табу и эвфемизмов в казахском языке // Ономастика Узбекистана. – АН УзССР. – 1989. -С.120-127.
- 3.75. Ермолиев Л.С., Саннева М.К. К проблеме морфосинтаксиса // Вопросы языкознания. – 1986. – № 6. – С.65-70.
- 3.76. Ларин Б.А. Об эвфемизмах // Ученые записки ЛГУ. – Л., 1961. – С.56-60.
- 3.77. Рагимзаде Н.Г. Об эвфемистических выражениях азербайджанского языка // Известия АН АзербССР.– Баку, 1966. – №4. –С.68-73.

- 3.78. Сат Ш.Ч. Табу и эвфемизмы в тувинском языке // Советская тюркология. – Баку, 1981. – С.224-230.
- 3.79. Турбачев О.Н. Из истории табуистических названий // Вопросы славянского языкознания. Вып. 3. – М., 1958. – С.12-20.
- 3.80. Узина М.С. О вежливых эквивалентов местоимений в современном персидском языке // Лексикология и грамматика восточных языков – М., 1976. – С.91-102.

IV. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

O`zbek tilidagi dissertatsiya va avtoreferatlar:

- 4.81. Маматов А.Е. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанлари доктори ... дисс. – Тошкент, 1999. - 265с.
- 4.82. Холмонова З.Т. Бобурнома лексикаси тадқиқи: Филол фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. -28 б.

Rus tilidagi dissertatsiya va avtoreferatlar:

- 4.83. Азимджанова Д. Синонимия глагольной лексики современного персидского языка: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1997. -130 с.
- 4.84. Артюшкина Л.В. Семантический аспект эвфемистической лексики в современном английском языке: Дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2002. - 153 с .
- 4.85.Атаев С. Эвфемизмы в туркменском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ашхабад, 1955. – 21 с.
- 4.86.Бердова Н.М. Эвфемизмы в свете теории вторичной номинации: Дисс... канд. ...филол. наук. – М., 1998. -133 с.
- 4.87.Бойко Т.В. Эвфемия и дисфемия в газетном тексте: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – М., 2005. -21 с.

- 4.88. Бушуева Т.С. Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Смоленск, 2005. - 26 с.
- 4.89. Зульфигарова Ф.И. Идиоматические выражения в персидском языке: Автореф. дисс. ...канд. фил. наук. – Баку, 1969. - 21 с.
- 4.90. Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1963. – 19 с.
- 4.91. Кужим Г.Г. Универсальный лингвистический закон триады: Дисс...канд. филол. наук. – Армавир, 2003. - 143 с.
- 4.92. Пасечникова И.П. Концептуализация войны и мира в современном немецком языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Тамбов, 2009. - 21 с.
- 4.93. Потапова О.В. Языковые этнические стереотипы и их представление в белорусской, русской и польской лексикографии XIX века: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Минск, 2005. -24 с.
- 4.94. Резанова А.Н. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и прагматические функции: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008. – 20 с.
- 4.95. Рагимзаде Н.Г. Идиоматические выражения в азербайджанском языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Баку, 1987. – 21 с.
- 4.96. Шахжури К.К. Эвфемизмы и их роль в изменении значения слов: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Тбилиси, 1956. – 20 с.

V. Lug`atlar

- 5.97. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М. : Наука, 1969. – 608 с.
- 5.98. Голева Г.С. Фарси-русский фразеологический словарь. – Москва: Грааль, 2000. – 626 с.

- 5.99. Ҳазраткулов Ж.Е., Абдусаматов М.Ш. Эрон адабиёти хрестоматияси. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 248 б.
- 5.100. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 109 б.
- 5.101. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 168 б.

O‘lim bilan bog‘liq evfemizmlar

Evfemizm	So‘zma-so‘z tarjimasi	Misol
لبيک حقرا اجابت کردن <i>labbeik-e haq-rā</i> <i>ejābat kardan</i> [10: 524]	(arab. لبيک <i>labbeik</i> “Sening amringni bajaryapman”) ollohning amrini bajarmoq, ya’ni olamdan o‘tmoq	این اگر این مرد در ایران ما زندگی میکرد...به سن و سال نمیرسید سالها پیش لبيک حضرت <u>حقرا اجابت کرده بود</u> <i>Agar in mard dar Irān-e mā zendegi</i> <i>mikard... be in senn-o sāl nemirasid</i> <i>sālhā piš labbeik-e hazrat-e haqrā</i> <i>ejābat karde bud</i> [10:524] “Agar bu kishi bizning Eronda bo‘lganda ...bu yoshga yetmay oldinroq o‘tib ketgan bo‘lardi”.
به دیار باقی شتافتن <i>be diyār-e bāqi</i> <i>šetāftan</i> [10:125]	boqiy dunyoga shoshmoq	دو سال بعد به دیار باقی شتافته بود <i>Do sāl ba’d be diyār-e bāqi šetāfte bud</i> [3:287] “Ikki yildan so‘ng <u>olamdan o‘tgandi</u> ”.
عمرش را به شما داد (بخشید) <i>‘omraš-rā be</i> <i>šomā dād</i> (<i>baxšid</i>) [10:372]	hayotini sizga berdi	پدر بزرگ داشتم که سه سال پیش <u>عمرش را به شما</u> <u>بخشید...</u> <i>Pedarbozorg dāštam ke se sāl piš</i> <i>‘omraš-rā be šomā baxšid</i> [7:23] “Buvam bor edi, uch yil oldin <u>olamdan</u> <u>o‘tdilar</u> ”.
به رحمت ایزدی پیوستن <i>be rahmat-e izadi</i> <i>peyvastan</i>	olloh rahmati bilan bog‘lanmoq	امروز درست یک هفته است که مادرت <u>بر رحمت</u> <u>ایزدی پیوسته است</u> <i>Emruz dorost yek hafte ast ke mādarat</i> <i>be rahmat-e izadi peyvaste ast</i> [8:24]

[10:217]		“Bugun onang <u>olamdan o‘tganiga roppa rosa bir hafta bo‘ldi</u> ”.
از این دینا رخت بر بستن // رخت به سرای باقی کشیدن <i>az in donyā raxt bar bastan // raxt be sarā-ye bāqi kešidan</i> [10:314]	bu dunyodan ketishga tayyorlanish	اگر زنده است خدا نگهدارش باشد و اگر هم خدای نخواستہ رخت به سرای باقی کشیده که روانش شاد باد <i>Agar zende ast xodā negahdāraš bāšad va agar ham xodāy naxāste raxt be sarā-ye bāqi kešide ke ravānaš šād bād</i> [9:154] “Agar tirik bo‘lsa, xudo panohida asrasin, agar <u>olamdan o‘tib ketgan bo‘lsa</u> xudo rahmatiga olgan bo‘lsin”.
راہرا نزدیک کردن <i>rāh-rā nazdik kardan</i> [10:310]	(hazil) yo‘lini qisqartirish	
دیده از جهان بستن <i>dide az jahān bastan</i> [10:287]	dunyodan ko‘zni yummoq	
دماغش تیغ کشید <i>Demāyaš tiy kešid</i> [10:270]	o‘lim to‘shagida	
چشم از جهان بستن <i>čašm az jahān bastan</i> [10:170]	bu dunyodan ko‘z yummoq	سالی شش هفت تا بچه میزایید که دو تایش در همان روزهای اول چشم از جهان میبستند <i>Sāli šeš haft tā bašše mizāid ke yeki do tāyaš dar hamān ruzhā-ye avval čašm az jahān mibastand</i> [9:31] “Yiliga olti-yettita bola tug‘ardi, lekin bir-ikkitasi birinchi kunlardayoq <u>o‘lib</u>

		qolardi”.
چشم از جهان پوشیدن <i>češm az jahān pušidan</i> [10:170]	dunyodan ko‘z yummoq	
مرحوم شدن <i>marhum šodan</i> [10:550]	marhum bo‘lmoq	حاجی صمد مرحوم شد شمارا وکیل و وصی خودش را کرده <i>Hāji Samad marhum šod...šomā-rā vakil o vasi-ye xodaš-rā karde</i> [6:145] “Hoji Samad <u>olamdan o‘tdi</u> Sizni vakil deb vasiyat qilib ketdi”.
چانه اش بوی الرحمان میدهد <i>čāne-aš bu-ye arrahmān midehad</i> [10:164]	uning dahanidan ar-Rahmon hidi kelmoqda (o‘limi yaqin)	این مرد حسابی در این سن و سال که چانه اش <i>In mard hesābi dar in senn o sāl ke čāneaš bu-ye ar-rahmān midehad</i> [9:12] “Bu kishining bir oyog‘i yerda bo‘lsa, bir oyog‘i go‘rda”
به آسمان پرواز کردن <i>be āsmān parvāz kardan</i> [10:24]	osmonga uchmoq	
در روی نقاب خاک کشیدن <i>dar ruy neqāb-e xāk kešidan</i> [10:321]	yuzga tuproq niqobini tortmoq	
سر به زمین گذاشتن <i>sar be zamin gozāštan</i> [10:363]	tuproqqa (yerga) bosh qo‘ymoq	

<p>‘omr’ عمر دادن dādan [10:426]</p>	<p>jon bermoq</p>	<p>تنها آرزو یم این بود که در راه ایران جان بدهم <i>Tanhā ārzu-yam in bud ke dar rāh-e Irān jān bedeham</i> [5:15] “Yagona orzuyim Eron uchun jon bermoq edi”.</p>
<p>جان کنان jān kandan [10:150]</p>	<p>joni uzilay deb turish</p>	<p>داشت جان میکند که من رسیدم <i>Dāšt jān mikand ke man rasidam</i> [4:257] “Men kelganimda joni uzilay deb turgan ekan”.</p>
<p>درگذشتن dar gozaštan [10:301]</p>	<p>dunyodan o‘tmoq</p>	<p>پدر بزرگم در چهارم ژانویه سال ۱۹۸۳ درگذشت <i>Pedarbozorg-am dar čahārom-e jānviye sāl-e 1983 dar-gozašt</i> [5:24] “Bobom 1983-yil 4-yanvar vafot etdi”.</p>
<p>به کام مرگ رفتن be kām-e marg raftan [10:481]</p>	<p>o‘lim komiga bormoq</p>	<p>چه جوان ها که در اثر این تریاک لعنتی به کام مرگ رفتند <i>če javānhā ke dar asar-e in ‘etiyād-e la’nati be kām-e marg raftand</i> [7:19] “Bu qurib ketgur tamakilarni deb qancha yoshlar o‘lib ketdi”.</p>
<p>به کام مرگ کشاندن be kām-e marg kešāndan [10:481]</p>	<p>o‘lim komiga tortmoq</p>	<p>آدمهای زیادی در اثر این ایدئولوژی به کام مرگ کشانده شدند. <i>Ādamhā-ye ziyādi dar asar-e in idiyolujī be kām-e marg kešānde šodand</i> [7:18] “Bu ideologiya qancha odamlarni o‘z komiga tortdi”.</p>
<p>جان کسیرا گرفتن</p>	<p>o‘ldirmoq</p>	<p>به انتقام خون پدرم جانسرا گرفتم.</p>

<p><i>jān-e kasi-rā gereftan</i> [10:150]</p>		<p><i>enteqām-e xun-e pedaram jānaš-rā gereftam</i> [5:34]</p> <p>“Otamning o‘chini olish uchun uni <u>o‘ldirdim</u>”.</p>
<p>خود شرا آسودن) (آسوده کردن) <i>xod-aš-rā āsudan</i> (<i>āsude kardan</i>) [10:228]</p>	<p>o‘zini tinchlantirmoq</p>	
<p>به حیات خویش پایان دادن <i>be hayāt-e xiš</i> <i>pāyān dādan</i> [10:199]</p>	<p>o‘z umriga yakun yasamoq</p>	<p>در پاییز سال ۱۳۲۹ به پاریس رفت و بهار ۱۳۳۰ با باز کردن شیرگاز به حیات خویش پایان داد <i>Dar pāyiz-e sāl-e 1329 be Pāris raft va dar bahār-e 1330 bā bāz kardan-e šir-e gāz be hayāt-e xiš pāyān dād</i> [5:21]</p> <p>“U 1329-yilning kuzida Parijga ketdi, 1330-yilning bahorida esa gaz kranini ochib (atayin ochiq qoldirib), <u>o‘z umriga yakun yasadi</u>”.</p>
<p>ور پریدن <i>var paridan</i> [10:602]</p>	<p>to‘satdan o‘lib qolmoq (yosh bola)</p>	<p>برادرم بچه ای قشنگی داشت ولی با یک تب ور پرید. <i>barādaram bačče-ye qašangi dāšt vali bā yek tab var parid</i> [10:602]</p> <p>“Akamning shirin bolasi bor edi, afsus <u>to‘satdan o‘lib qoldi</u>”.</p>
<p>وادی حاموشان <i>vādi-ye xāmušān</i> [10:600]</p>	<p>indamaslar (sukunat) vodiysi (qabriston)</p>	<p>‘<i>āqebat</i> اقبیت منزل ما وادی حاموشان است <i>manzel-e mā vādi-ye xāmušān ast</i> [10:600]</p> <p>“Oxir borar manzilimiz indamaslar</p>

		(sukunat) vodiysidir”.
مئل برگ حزان روی هم ریختن <i>mesl-e</i> <i>barg-e xazān ru-</i> <i>ye ham rixtan</i> [10:384]	kuzgi bargdek to‘kilmoq (urush, yuqumli kasallik tufayli odamlarning qirilib ketishi)	
اجل دور سرش پر میزند <i>Ajal dour-e saraš</i> <i>par mizanad</i> [10:419]	ajal boshi tepasida aylanib yuribdi	
آب به آب شدن <i>āb be āb šodan</i> [10:7]	olamdan o‘tmoq	آب به من فردا میرم مریضخانه میخوابم شاید زیر عمل آب می شوم <i>Man fardā miram marizxune</i> <i>mixābam, šāyad zir-e ‘amal āb be āb</i> <i>mišavam</i> [4:149] “Ertaga operatsiyaga yotyapman. Balkim operatsiyadan chiqmasman”.

Axloq bilan bog‘liq evfemizmlar

Evfemizm	So‘zma-so‘z tarjimasi	Misol
زن بد کار <i>zan-e badkār</i> [10:342]	yomon axloqli ayol	
معروفه <i>ma’rufe</i>	fohisha	

[10:560]		
نانجیب <i>nānajib</i> [10:589]	buzuq	
فاحشه <i>fāheše</i> [10:435]	fohisha	
لوند <i>lavand</i> [10:528]	buzuq ayol	به یاد بیاورید که این زن با آن لوندی با چه آدمی زندگی میکرد <i>Be yād beyāvarid ke in zan bā ān lavandi bā če ādami zendegi mikard</i> [5:54] “Bu <u>buzuq ayol</u> qanday odam bilan yashaganini bir eslab ko‘ring”.
زن نانجیب <i>zan-e nānajib</i> [10:342]	buzuq ayol	زن نانجیب گرفتن آسان ولی نگاهداری اش <i>Zan-e nānajib gereftan āsān vali negahdāriaš moškel ast</i> [10:342] “Buzuq ayolni olish oson, lekin uni ushlab qolish qiyin”. (<i>Maqol</i>)
هفت قلم ارایش کردن <i>haft qalam</i> <i>ārāyeš kardan</i> [10:610]	to‘q bo‘yanib olmoq – <i>haft qalam yettita kosmetik vosita: xina, basma, upa, surma, mushk, yaltiroq ten, yuzni qizartiradigan vosita</i>	
کرم ریختن <i>kerm rixtan</i> [10:468]	noz-karashma qilmoq	تقصیر خود دختره از بس که کرم میریزه همه <i>Taqsir-e xod-e doxtare as bas ke kerm mirize hame pošt-e saraš harf mizanand</i> [10:468]

		“Ayb qizning o‘zida, o‘zini erkaklar oldida ko‘rsataverganidan hamma uni gapirmoqda”.
قر زدن <i>qor zadan</i> [10:447]	erkaklar boshini aylantirmoq	تو جوان خوشتیپی هستی میترسم دخترها قرت بزندند <i>To javān-e xoštīpi hasti mitarsam doxtarhā qoret bezanand</i> [10:447] “Sen o‘zing kelishgan yigitsan, qizlar boshingni aylantirib qo‘yishidan qo‘rqaman”.
غمزه شتری آمدن <i>γamze-ye šotori āmadan</i> [10:432]	noz-karashma qilmoq	از همه بدتر این دخترک اورا عصبی میکرد و غمزه شتری میامد <i>Az hame badtar in doxtarak u-rā ‘asabi mikard va γamze-ye šotori miyāmad</i> “Hammadan yomoni bu qiz uning asabini qo‘zg‘atardi va yonida <u>noz-karashma qilardi</u> ”.
دادن غر <i>γer</i> <i>dādan</i> [10:430]	noz-karashma qilmoq	
مثل رقاصها <i>mesl-e raqqāshā</i> [10:287]	xuddi raqqosalardek (hammani o‘ziga qaratuvchi harakat qilmoq)	مثل رقاصها راه میرود مثل رقاصها لباسی میپوشد <i>Mesl-e raqqāshā rāh miravad, mesl-e raqqāshā lebās mipušad</i> [5:23] “Yurishi hammani o‘ziga qaratadi, hammani o‘ziga qaratuvchi kiyim kiyadi”.

Kambag'allik bilan bog'liq evfemizmlar

Evfemizm	So'zma-so'z tarjimasi	Misol
چرکین یقه <i>yaqečerkin</i> [10:620]	yoqasi kir (kambag'al, past tabaqali)	ما یاقه چرکینها از صدقه سر شماها یک لقمه نان میخوریم <i>Mā yaqečerkinhā az sadaqe-</i> <i>ye sar-e šomāhā yek loqme nān</i> <i>mixorim</i> [10:620] “Biz <u>past tabaqalilar</u> sizning sadaqangiz evaziga yashaymiz”.
یتیمشادکنک <i>yatimšādkonak</i> [10:619]	yetimlarni xursand qiluvchi (kambag'allarga tarqatiladigan yegulik)	
نداری <i>nadāri</i> [10:501]	kambag'allik	
گنجشک روزی <i>gonješkruzi</i> [10:398]	chumchuqdek kun ko'ruvchi (kambag'al, faqir)	
باریک گردن <i>gardanbārik</i> [10:390]	bo'yni ingichka (kambag'al)	
قلیه انتظار داریم <i>Qalye-ye entezār</i> <i>dārim</i> [10:451)	(hazil.) umid va kutish deb nomlangan go'shtli taomimiz bor (yegulik hech narsamiz yo'q)	

عنكبوت در جیشرا گرفته است (بسته (<i>ankabut dar-e</i> <i>jibaš-rā gerefte ast</i> (<i>baste ast</i>) [10:428]	o'rgimchak cho'ntagiga in qurib olgan (puli yo'q)	
دست به دهان <i>dast be dahān</i> [10:257]	kambag'al	از کارمندان دست به دهن دولت بود. <i>az kārmandān-e dast be dahān-e doulat bud...</i> [8:159] " <u>kambag'al</u> davlat xizmatchilaridan edi...".

Yolg'onchilik bilan bog'liq evfemizmlar

Evfemizm	So'zma-so'z tarjimasi	Misol
به قالب زدن <i>be qāleb zadan</i> [10:54]	to'qimoq, aldamoq	برای دلخوشی مادرم چه افسانه هایی که به قالب <i>Barā-ye delxoši-ye mādam če</i> <i>afsānehā-i ke be qāleb nazadam</i> "Onamni xursand qilish uchun nimalarni o'y lab topmadim". [10:54]
زمین را به آسمان دوختن <i>zamin-rā be</i> <i>āsmān duxtan</i> [10:340]	yerni osmonga ulamoq (aldamoq)	مرد غریبیست با سخنان دروغ خود زمین را به <i>Mard-e yaribist bā</i> <i>soxanān-e doruy-e xod zamin-rā be</i> <i>āsmān miduzad</i> [10:340] "G'alati odam, doimo <u>yolg'on to'qib</u> <u>yuradi</u> ".

Tana tuzilishi bilan bog‘liq evfemizm

Evfemizm	So‘zma-so‘z tarjimasi	Misol
گوشت بدنش آب شد <i>gušt-e badanaš āb šod</i> [10:517]	juda ozib ketgan	<i>Tamām-e gušt-e badanaš āb šode bud</i> [10:517] “Juda <u>ozib ketgandi</u> ”.
گوشت گرفتن <i>gušt gereftan</i> [10:517]	semirib ketmoq	<i>Tāzegihā xeyli gušt gerefte</i> [10:517] “Oxirgi paytlarda juda semirib ketgan”.
مثل چوب کبریت <i>mesl-e čub-e kebrit</i> [10:498]	xuddi gugurt cho‘pidek	احمد لاغرترین همکلاس ما بود مثل چوب کبریت <i>Ahmad lāyartarin hamkelās-e mā bud, mesl-e čub-e kebrit</i> [10:498] “Ahmad sinfirmizdagi <u>xuddi gugurt cho‘pidek</u> eng ozg‘in bola edi”.
آدم قلمی <i>ādam-e qalami</i> [10:21]	qalamdek ozg‘in	

Yomon odatlar bilan bog‘liq evfemizmlar

Evfemizm	So‘zma-so‘z tarjimasi	Misol
فریب شیطان خوردن <i>ferib-e šeytān xordan</i> [11:243]	aroq ichmoq	از خدا پنهان نیست این همسفران بنده اصولاً Az xodā penhān nist in hamsafarān-e bande osulan badešān nemiyāyad gāh gāhi <u>ferib-e šeytān-rā bexorand</u> [11:243]

		“Hamrohlarim gohida <u>ichib turishni</u> yoqtirishlari hech kimdan sir emas”.
بتر <i>batr</i> [10:26]	shisha (spirtli ichimlik)	yek <i>batri āvardand</i> [10:26] “ <u>Bir shisha vino keltirdilar</u> ”.
گیلاس پشت گیلان حالی کردن <i>gilās pošt-e gilās xāli kardan</i> [11:243]	qadah ketidan qadah ko‘tarish	آغا با اگره بعد با رغبت گیلان پشت گیلان حالی کردند <i>Āqā bā agrāh ba‘d bādbā raybat gilās pošt-e gilās xāli kardand</i> [11:243] “Og‘o avval irganib, keyin bajonidil <u>qadah ketidan qadah ko‘tardi</u> ”.
لب تر کردن <i>lab tar kardan</i> [10:400]	ozgina ichmoq, og‘zini tekkizib qo‘ymoq	تقریباً همه اش را او خورد و من فقط لب تر کردم <i>taqriban hameaş-rā u xord va man faqat lab tar kardam</i> [5:56] “.....u hammasini ichdi, men faqat <u>og‘zimni tekkizib qo‘ydim</u> ”.
مست لایعقل <i>mast-e loyeqal</i> [10:498]	juda mast	بعد از مرگ زنش به همه چیز بی تفاوت شده بود <i>Ba‘d az marg-e zanaş be hame ĉiz bitafāvot šode bud va šabhā mast-e loyaql bar migaşt</i> [5:27] “Xotining o‘limidan so‘ng barcha narsaga befarq bo‘lib qoldi, kechalari uyga <u>g‘irt mast</u> holatda kelardi”.
کله اش گرم است <i>kalleaş garm ast</i> [10:387]	ozgina kayfi bo‘lmoq	وقتی ده تومانی بهم داد خبردار شدم که یارو کله اش گرمه <i>Vaqtı dah tumani behem dād şostam xabardār şodam ke yāru kalleaş garme</i>

		“Menga o‘n tumanlik berganda <u>ozgina kayfi borligini sezdim</u> ”. [9:286]
تلو تلو خوردن <i>telav</i> <i>telav xordan</i> [10:139]	mastlikda gandiraklab yurmoq	<i>Mard mast bud va telav telav mixord</i> [5:29] “U kishi mast edi, <u>gandiraklab</u> zo‘rg‘a ketardi”.
اهل دود بودن <i>ahl-e dud budan</i> [10:16]	chekuvchi (tamaki, nasha, qalyon, trubka)	برای آغا که اهل دود بود بسات تریاک هم <i>Barā-ye āyā...ke ahl-e dud bud besāt-e taryāk ham farāham āmad</i> [9:298] “Nashavand (nasha chekuvchi bo‘lgan) og‘oga moslamani keltirishdi”.
عطیاد لعنتی <i>etiyād-e la‘nati</i> [10:269]	narkotik	

Qallob va ayyorlar bilan bog‘liq evfemizmlar

Evfemizm	So‘zma-so‘z tarjimasi	Misol
هفتخت <i>haftxat</i> [10:604]	aferist, qallob	غلام حیدر که از <u>هفتخت های روزگار</u> بود خود را <i>polām xaydar ke az haftxathā-ye ruzgār bud xod-rā barādarzāde-ye mahāraje moarrefi karde bud</i> [10:604] “O‘sha paytning <u>qalloblaridan</u> bo‘lgan G‘ulom Haydar aferist o‘zini maxoraja jiyani deb tanishtirgandi”.
گوش کسیرا بریدن <i>guš-e kasi-rā</i>	qarz olib bermaslik	این تاجر گوش کسان زیادی را بریده خیال پس <i>in tājer guš-e kasān-e</i>

<i>boridan</i> [10:457]		<i>ziyādi-rā boride xiyāl-e pas dādan ham nadārad</i> [10:457] “Bu savdogar <u>ko‘plarni aldab</u> , qarzini qaytarib berishni o‘ylamayapti ham”.
کلاه کسیرا برداشتن <i>Kolāh-e kasi-rā bardāštan</i> [10:405]	aldamoq, pul olib qaytarmaslik	
کچلکبازی در آفردن <i>kačalakbāzi dar āvardan</i> [10:398]	biror narsadan qutilish uchun o‘zini har ko‘yga solmoq, ayyorlik qilmoq	او برای شانه خالی کردن هزار جور <u>کچالکبازی</u> <i>U barā-ye šāne xāli kardan</i> <u>در میاورد</u> <i>hezār jur kačalakbāzi dar miyāvarad</i> [10:398] “U qutulib qolish uchun <u>o‘zini har ko‘yga soladi</u> ”.
قالب کردن <i>qāleb kardan</i> [10:438]	yomon molni o‘tkazish	بزازهای ما پارچه ی پوسیده و خرابی را به اسم پارچه پشمی خالص میخوانند قالب کنند <i>Bazzāzhā-ye mā ...pārče-ye puside va xarābi-rā be esm-e pārče-ye pašmi-ye xāles mixāhand qāleb konand</i> [10:398] “Bizning savdogarlar toza jun mato deb yomon matoni o‘tkazmoqchilar”.
مثل قاپ قمارخانه <i>mesl-e qāp-e qemārxāne</i> [10:587]	qallob	
رودست به کسی زدن <i>rudast be kasi zadan</i> [10:302)	chuv tushurmoq	رفیقم رودست بدی در این معامله به من زد <i>Rafiqam rudast-e badi dar in mo‘āmale be man zad</i> [10:302) “O‘rtog‘im bu ishda meni <u>yomon</u>

		<u>tushirdi</u> ".
رنگ کردن <i>Rang kardan</i> [10:298]	bo'yamoq, chuv tushirmoq	<i>Dar</i> در این نمونه همه همدیگرو رنگ میکنند <i>in zamune hame hamdigaru rang</i> <i>mikonand</i> [10:298] "Bu zamonda hamma bir-birini <i>aldaydi</i> ".
من درآوردی <i>mandarāvordi</i> [10:537]	yolg'on,soxta	من درآوردی همه اش من درآری است منافع مقدس خودش را منافع مقدس میهن جلوه میدهد. <i>Mandarāvordi hame-aš mandarārist</i> <i>manāfe-ye xodaš-rā manāfe-ye</i> <i>moqaddas-e mihan jelve midehad.</i> [10:537] "Barchasi yolg'on. O'z manfaatlarini vatanning muqaddas manfaatlari sifatida ko'rsatadi".
گفتند خرس تخم می گذارد یا بچه می کند؟ گفت از این دم بریده هر چه گویی بر می آید. <i>goftand xers toxm</i> <i>migozārad yā</i> <i>bačče mikonad?</i> <i>goft az in</i> <i>domboride har če</i> <i>gui bar miyāyad</i> [10:490]	so'rashibdi: ayiq tuxum qo'yadimi yoki bola tug'adimi? aytdi: bundan har narsani kutish mumkin. (ayyor odamga nisbatan) (<i>maqol</i>)	

Qizg‘anchig‘lik va ochko‘zlik bilan bog‘liq evfemizmlar

Evfemizm	So‘zma-so‘z tarjimasi	Misol
ناخنخشک <i>nāxonxošk</i> [10:582]	qizg‘anchiq, pastkash	
دوزخ کنده <i>konde-ye duzax</i> [10:459]	qari to‘nka	
گره به دمبه افتاد سگ به شکمبه افتاد <i>gorbe be dombe oftād sag be šekambe oftād</i> [10:496]	mushuk dumbaga, it jig‘ildonga tashlanibdi (ochko‘zga nisbatan) (<i>maqol</i>)	
به عزرائیل جان ندادن <i>be Azrāil jān nadādan</i> [10:279]	Azroilga ham jonini bermaslik	حاجی عمو از آن دندانگردهایی بود که به عزرائیل جان نمیدهد و آب از دستشان نمیچکد <i>Hāji ‘amu az ān dandongerdhā-i bud ke be ‘azrāil jān nemidehad va āb az dastešān nemičekad</i> [10:279] “Hoji amaki <u>hatto Azroilga ham jonini bermaydigan</u> , qo‘lidan bir tomchi suv tomizmaydigan pastkashlardan edi”.
آب از دست نچکیدن <i>āb az dast načekidan</i> [10:12]	qo‘lidan bir tomchi suv tommaslik	
گفتند خربوزه می خواهی یا هندوانه؟ گفت هر دوانه. <i>Goftand xarbuze</i>	so‘rabdilar: “qovun yeysanmi yoki tarvuz?”, javob berdi: “unisiniyam,	

<p><i>mixāhi</i> <i>yā</i> <i>hendevāne?</i> <i>Goft</i> <i>har</i> <i>dovāne.</i> [10:598]</p>	<p>bunisiniyam”. (<i>maqol</i>) (ochko‘zlar haqida)</p>	
<p>مثل گرگ گرسنه <i>mesl-e</i> <i>gorg-e</i> <i>gorosne.</i> [10:465]</p>	<p>och bo‘ridek (ochko‘zga nisbatan)</p>	<p>مثل گرگ گرسنه می ماند هر چند هم استفاده کند باز سیر نمی شود <i>Mesl-e gorg-e gorosne mimānd har čand ham estefāde konad bāz sir namišavad</i> [5:28] “Bu korxonā rahbari juda ochko‘z, qancha “yemasin” to‘ymaydi”.</p>

Pora bilan bog‘liq evfemizmlar

Evfemizm	So‘zma-so‘z tarjimasi	Misol
<p>سبیل کسی را چرب کردن <i>sebil-e kasirā čarb</i> <i>kardan.</i> [10:354]</p>	<p>birovning mo‘ylabini moylamoq (pora bermoq)</p>	<p>لابد یارو سبیلت را چرب کرده است. چه به تو داده راستش را بگو نشان بده ببینم. <i>Lābod yāru sebilat-rā čarb karde ast. Če be to dāde rāstaš-rā begu nešān bedeh bebinam</i> [10:354] “Balkim bu kishi <u>og‘zingni moylab qo‘ygandir</u>. Rostini ayt, senga nima berdi, ko‘rsat-chi, bir ko‘ray”.</p>
<p>دهان کسی را شیرین کردن <i>dahān-e kasi-rā</i></p>	<p>kimningdir og‘zini shirin qilmoq (pora bermoq)</p>	<p>تو دهان این مأمور را شیرین نکردم کارم را انجام نداد <i>Tā dahān-e in mamur-rā širin</i></p>

<p><i>širin kardan</i> [10:275]</p>		<p><i>nakardam kāram-rā anjām nadād</i> [5:14] “Bu amaldorning <u>og‘zini</u> moylamagunimcha ishim hal bo‘lmadi”.</p>
<p>مايه گذاشتن <i>māye gozāštan</i> [10:501]</p>	<p>pora bermoq</p>	<p>تا نزد يك کارمند اداره مبلغی مایه نگذاشت کارش نگذشت <i>Tā nazd-e yek kārmand-e edāre mablayi māye nagozāšt kāraš nagozašt</i> [9:241] “Idora xizmatchisiga <u>pora bermaguncha</u> ishi bitmadi”.</p>
<p>گاو شیرده <i>gāv-e širdeh</i> [10:380]</p>	<p>“sog‘in sigir” (moddiy manfaat o‘chog‘i)</p>	<p>عجالة جامعه گاو شیرده ماست و دنیا بکام ما میچرخه. <i>‘Ajālatan jāme’e gāv-e širdeh-e māst va donyā be kām-e mā mičarxe.</i> [10:380] “Hozircha jamiyat bizning “<u>sog‘in sigirimiz</u>” va dunyo charxpalagi bizning qo‘lda”.</p>